O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

BUXGALTERIYA QISOBI VA AUDIT KAFEDRASI

K.B. URAZOV

BUXGALTERIYA QISOBI VA AUDIT

MA`RUZA MATNLARI TO`PLAMI

II-QISM

SAMARQAND - 2004

K.Urazov. Buxgalteriya qisobi va audit. Ma`ruza matnlari to`plami. II-қism, Samarқand, SamISI, 2004. - b.

Ushbu ma`ruza matnlari to`plamida korxonalarning olinadigan schyotlari (debitorlik қarzlari), majburiyatlari, xususiy kapitali, daromadlari, xarajatlari, oxirgi moliyaviy natijalari va ularni ishlatilishining qisobini yuritish, moliyaviy qisobotni tuzish, shuningdek auditning moqiyati, turlari, predmeti, uslubi, tashkiliy-quқuқiy asoslari qamda korxona faoliyatining auditorlik tekshiruvi, uning natijalarini umumlashtirish, rasmiylashtirish va tadbiқ etish oxirgi yillarda қabul қilingan қonunlar va boshқa me`yoriy xujjatlarga muvofiқ yoritilgan.

Oliy o`қuv yurtlarida 5340100 «Iқtisodiyot», 5340200 «Menejment», 5340300 «Marketing» va 5340400 «Biznes» ta`lim yo`nalishlari bo`yicha bakalavriatda ta`lim olayotgan talabalarga mo`ljallangan. Undan boshқa ixtisosliklarda ta`lim olayotgan bakalavrlar, magistrlar, malaka oshirish fakul'teti tinglovchilari qam foydalanishlari mumkin.

Taқrizchilar:

Professor Abdullaev R.A. (Sam ISI)
Dotsent Aliқulov A.I. (SamKQI)

© Samarқand iқtisodiyot va servis instituti, 2004 y.

Ma`ruza 11. OLINADIGAN SCHYOTLAR (DEBITORLIK QARZLAR) NING QISOBI

(2 soat)

Ma`ruza rejasi

1. *Olinadigan schyotlarning (debitorlik қarzlarning) moqiyati, turlari va ular qisobining vazifalari*
2. *Tovar operatsiyalari bo`yicha olinadigan schyotlar (debitorlik қarzlar)ning qisobi*
3. *Berilgan bo`naklar ning qisobi*
4. *Ta`sischilar va boshқa debitorlar қarzlarining qisobi*
5. *SHubqali қarzlar bo`yicha rezervlarning qisobi.*

1.Olinadigan schyotlarning (debitorlik қarzlarning) moqiyati, turlari va ular qisobining vazifalari

Olinadigan schyotlar deganda xaridorlar va buyurtmachilarning sotilgan tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar, ko`rsatilgan xizmatlar uchun, shuningdek turli yuridik va jismoniy shaxslarning ma`lum maқsadlarda olgan mablaғlari uchun korxona oldidagi debitorlik қarzlari tushuniladi. Buxgalteriya qisobida olinadigan schyotlarni asosan muddati i xarakteri bo`yicha aks ettirish tartibi keng қo`llaniladi.

Muddat belgisi olinadigan schyotlarni turli jiqatlari bo`yicha guruqlashga imkon beradi, jumladan qisobot davrlari, to`lov va da`vo muddatlari, shuningdek kelib tushish eqtimoliga ko`ra.

Qisobot davrlariga ko`ra olinadigan schyotlar қisқa muddatli ( bir yilgacha) va uzoқ muddatli (bir yildan oshiқ) bo`lishi mumkin.

*To`lov muddatiga* ko`ra olinadigan schyotlar to`lov muddati o`tmagan va to`lov muddati o`tib ketgan debitorlik қarzlarga bo`linadi. Ўzbekiston Respublikasida қabul қilingan tartibga asosan 90 kungacha olinmagan schyotlar muddati o`tmagan, 90 kundan ortiқ muddatda to`lanmagan schyotlar to`lov muddati o`tib ketgan debitorlik қarzlari bo`lib qisoblanadi. Respublikamiz қonunlariga muvofiқ 90 kundan to`lov muddati oshib ketgan debitorlik қarzlariga yo`l қo`yganligi uchun xo`jalik yurituvchi sub`ektlarning raqbarlari va bosh qisobchilari ma`muriy va moliyaviy ja`zoga tortiladi.

*Da`vo muddatiga* ko`ra olinadigan schyotlar da`vo muddati o`tib ketmagan va da`vo muddati o`tib ketgan debitorlik қarzlarga bo`linadi. To`lov muddati 3 yildan oshmagan

olinadigan schyotlar da`vo muddati o`tmagan debitorlik қarzlari, to`lov muddati 3 yildan oshib ketgan olinadigan schyotlar esa da`vo muddati o`tib ketgan debitorlik қarzlaridaromad
vasxarajatlariniphisobgaiolishuchunqo`llanilibfhisobotodavriningo`toxiridaayopilibketadi ganrvaaqoldiqqasega bo`lmaydiganschyotlatushuniladio`tib ketmagan debitorlik қarzlari asossiz balansdan chiқarilmasligi lozim.

Kelib tushish eqtimoliga ko`ra olinadigan schyotlar kelib tushushi shubqali va kelib tushishi shubqasiz bo`lgan debitorlik қarzlarga bo`linadi. SHubqali debitorlik қarzlar deganda, odatda, inқirozga uchragan, faoliyatini to`xtatib қo`ygan yoki umuman yopilib ketgan, katta miқdorda kreditorlik қarzlarga ega bo`lgan, to`lov қobiliyatiga ega bo`lmagan, faoliyati uchun sud va prokuratura organlari oldida javob berayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning korxona oldidagi қarzlari tushuniladi. SHubqali қarzlar sud organlari orқali o`ndiriladi, o`ndirish imkoniyati bo`lmaganda korxonaning zarariga olib boriladi.

Xarakteriga ko`ra olinadigan schyotlar tovar xarakteridagi va notovar xarakteridagi debitorlik қarzlarga bo`linadi. Tovar xarakteridagi olinadigan schyotlarga bevosita tovar operatsiyalariga daqldor bo`lgan debitorlik қarzlari, masalan xaridor va buyurtmachilarning қarzlari, ta`minotchilarning olgan avanslar bo`yicha қarzlari kiradi. Bevosita tovar operatsiyalari bilan boғliқ bo`lmagan olinadigan schyotlar notovar xarakteridagi debitorlik қarzlari qisoblanadi. Ularga, masalan, xodimlarning қarzlari, ta`sischilarning қarzlari, byudjet va ijtimoiy suғurta organlarining қarzlari va boshқalar kiradi.

Debitorlik қarzlar qisoblash tamoyiliga muvofiқ xo`jalik operatsiyalari yuz bergan sanadan boshlab tan olinadi. Tan olingan debitorlik қarzlari boshlanғich (dastlabki) қiymatda va sof қiymatda baqolanadi. Debitorlik қarzlar buxgalteriya qisobi schyotlarida boshlanғich қiymatida, balans va qisobotning boshқa shakllarida esa sof қiymatida aks ettiriladi

Debitorlik қarzlarning boshlanғich (dastlabki) қiymati deganda ularning vujudga kelgan sanasidagi қiymati tushuniladi. Ushbu қiymat bo`lib, odatda, schyot-faktura va dalolatnomalarda ko`rsatilgan tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlarning sotish baqosidagi қiymati qisoblanadi.

Debitorlik қarzlarning sof қiymati deganda xaridor va buyurtmachilarga berilgan pulli chegirmalar, savdo chegirmalari, ulardan қaytib kelgan tovar-moddiy boyliklar, shubqali қarzlar summalari ayirilib tashlangandan keyin, shuningdek chet el valyutalari kurslari va milliy valyuta kursi o`rtasidagi farқlar qisobga olib topilgan қiymat tushuniladi.

Pulli chegirmalar – bu jami olinadigan schyotlar summasining ma`lum bir қismini raғbatlantirish vositasi sifatida xaridor va buyurtmachilar ixtiyorida қoldiriladigan қismi. Bunday chegirmalar, odatda, sotuvchi tomonidan debitorlik қarzlarni tezroқ o`ndirib olish, shubqali қarzlarni vujudga kelishining oldini olish maқsadlarida beriladi. Pulli chegirmalar olinadigan schyotlar summasiga nisbatan foizlar ko`rinishida yoki қat`iy summada belgilanishi mumkin.

Savdo chegirmalari – bu tovarlarni tezroқ katta miқdorda sotish maқsadida, shuningdek ularni reklama қilish maқsadida xaridorlar foydasiga sotib olishda tovarning sotish baqosidan kamaytiriladigan қismi.

Қaytarilgan tovar-moddiy boyliklar қiymati– bu xaridor va buyurtmachilarga jo`natilgan, lekinda ma`lum sabablarga ko`ra ular tomonidan қaytarib berilgan, shuning uchun kelib tushadigan debitorlik қarzlar summasidan ayirib tashlanadigan қiymat.

Olinadigan schyotlar bo`yicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

- Olinadigan schyotlarni asosli tan olish va real baqolash;
- Olinadigan schyotlarni vujudga kelishi va қoplanishini o`z vaқtida tegishli qujjatlar bilan to`ғri rasmiylashtirish;
- Olinadigan schyotlarni mazmuni, xarakteri va boshқa belgilari bo`yicha ular uchun ko`zda tutilgan schyotlarda aks ettirish;
- Olinadigan schyotlarning qolati va qarakati ustidan doimiy nazoratni olib borish;
- Olinadigan schyotlarni o`z vaқtida kelib tushushini, to`lov muddatini o`tib ketmasligi ustidan doimiy nazorat қilish;
- Kelib tushushi shubqali qisoblangan debitorlik қarzlarni sud organlari orқali o`ndirib olinishini yoki korxona qisobidan to`ғri chiқarilishini nazorat қilish;
- Olinadigan schyotlar bo`yicha qisobotlarni to`ғri va o`z vaқtida tegishli organlarga etқazish va boshқalar.

2.Tovar operatsiyalari bўyicha olinadigan schyotlar (debitorlik қarzlar) ning qisobi

Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar qisobi. Xaridor va buyurtmachilar bilan olinadigan schyotlar bo`yicha qisob-kitoblarning qisobi 21-son BXMS ga muvofiқ қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

• **4010 “Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”** – bu aktiv schyot korxonaning xaridorlari va buyurtmachilari bilan jo`natilgan tovar-moddiy boyliklar, bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlar uchun qisob-kitoblarni naқd va naқdsiz pul ko`chirish yo`llari bilan olib borishda қo`llaniladi. Unda olinadigan schyotlarning qolati va qarakati aks ettiriladi. Olinadigan schyotlarni vujudga kelishiga jo`natilgan tovar-moddiy boyliklarni, bajarilgan ishlar va xizmatlarni qaқiқatda amalga oshirilganligini ifodalovchi boshlanғich qujjatlar (schyot-fakturalar, dalolatnomalar) asosida қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

Debet 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar “

Kredit 9010 «Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar», 9020 «Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar», 9030 «Bajarilgan ishlar va ko`rsatilgan xizmatlardan olingan daromadlar», 9210 «Asosiy vositalarning chiқimlari», 9220 «Boshқa aktivlarning chiқimlari».

CHet el valyutalarida xorijiy mamlakatlarga eksport қilingan maqsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlar uchun muddatida kelib tushmagan debitorlik қarzlar bo`yicha ijobiy kurs farқlari vujudga kelishi mumkin. Bunday kurs farқlari milliy valyuta qisobida xorijiy xaridor va buyurtmachilarning korxona oldidagi debitorlik қarzlarini ko`paytiradi va u қuyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Debet4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar “

Kredit 9540 «Valyuta kurslaridagi farқlardan olingan daromadlar»

Olinadigan schyotlar xaridor va buyurtmachilardan oldindan olingan avans summalari evaziga, shuningdek debitorlik қarzlar naқd va naқdsiz yo`llar bilan keyinchalik kelib tushgandan so`ng yopiladi, ya`ni:

Debet 6310 «Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar», 5010 «Kassa», 5110»Qisob-kitob schyoti», 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari», 5220 «CHet ellardagi valyuta schyotlari», 6810 « Қisқa muddatli bank kreditlari» va boshқalar.

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar “

CHet el valyutalarida xorijiy mamlakatlarga eksport қilingan maqsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlar uchun muddatida kelib tushmagan debitorlik қarzlar bo`yicha salbiy kurs farқlari vujudga kelganda, uning summasi korxona zarariga olib boriladi va u қuyidagicha aks ettiriladi:

Debet 9620 « Valyuta kurslari farқlaridan ko`rilgan zararlar»

Kredit 4010 «Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar “

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan qisob-kitoblarning analik qisobi ularning qar biri bo`yicha aloqida yuritiladi.

• **4020 “Olingan veksellar”** – ushbu aktiv schyot qisob-kitoblar veksellar asosida amalga oshirilganda қo`llaniladi va olingan veksellar bo`yicha qisob-kitoblarning qolati va qarakatini aks ettiradi. Ushbu schyotning debetida olingan veksellar, kreditida esa ularning to`lanishi aks ettiriladi.

Veksel – bu xaridor yoki buyurtmachining sotuvchiga қarzini ma`lum bir muddatdan so`ng to`lash bo`yicha olgan majburiyatini aks ettiruvchi qujjat. Veksellar oddiy va murakkab, foizli va foizsiz bo`ladi.

Oddiy veksellar –bu foizlar faқat vekselning asosiy summasidan to`lanadigan veksellar. Asosiy summa bo`lib, vekselning nominal қiymati, ya`ni bosmaxona usulida vekselda ko`rsatilgan қiymat, qisoblanadi.

Murakkab veksellar –bu foizlar kelgusi davrlarda asosiy summa va oldingi davr uchun qisoblangan foizlar summasi bilan birga olingan қiymatdan qisoblanadigan veksellar.

Foizli veksellar – bu qisoblanadigan foiz miқdori oldindan bosmaxona usulida aks ettirilgan veksellar.

Foizsiz veksellar – bu qisoblanadigan foiz miқdori oldindan bosmaxona usulida aks ettirilmagan veksellar.

Veksellar bo`yicha foizlarning summasi (Fs) vekselning asosiy summasi bo`lgan nominal қiymatini (Nқ) yillik foiz miқdoriga (Fm) ko`paytirish va 100% ga bo`lish, topilgan summani yildagi kalendar kunlar soniga bo`lish (365 kun) va vekselni qisobot davrida qaқiқatda qarakatda bo`lgan kunlari soniga (K) ko`paytirish yo`li bilan topiladi, yani

$$Fs = Nқ \times Fm : 100\% : 365 \times K$$

Sotuvchiga xaridor yoki buyurtmachi debitorlik қarzini o`rniga veksellar berganda қuyidagi yozuv қilinadi:

Debet 4020 “Olingan veksellar”

Kredit 4010 “ Xaridor va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”

Oddiy va murakkab , foizli va foizsiz veksellar bo`yicha shartnomaga asosan qisoblangan foizlar summasiga қuyidagi yozuvlar қilinadi:

Debet 4830 “ Olinadigan foizlar”

Kredit 9530 “ Foizlar ko`rinishidagi daromadlar”

Veksellar қiymati va ular bo`yicha foizlar kelib tushganda қuyidagi yozuvlar қilinadi:

Debet 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob –kitob schyoti” , 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari», 5220 «CHet ellardagi valyuta schyotlari», 6810 « Қisқa muddatli bank kreditlari» va boshқalar.

Kredit 4020 “Olingan veksellar”, 4830 “ Olinadigan foizlar”

**• 4110 «Aloqida ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar» va 4120 «SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar»** -ushbu schyotlar korxonaning aloqida ajratilgan bo`linmalari (filiallari va vakolatxonalari), shuningdek uning ta`sis etilgan sho``ba va қaram xo`jalik jamiyatlari bilan qisob –kitoblarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan. Ushbu schyotlarni yuritish tartibi 4010–schyotni yuritish tartibiga to`liқ o`xshashdir.

Ta`minotchilar bilan olingan schyotlar bo`yicha qisob-kitoblarning qisobi. 21-son BQMS ga muvofiқ ta`minotchilarga tovar-moddiy boyliklar (TMB) va boshқa aktivlar uchun, shuningdek ko`rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan avans tariқasida o`tқazib berilgan mablaғlar bo`yicha qisob kitoblarning qolati va qarakati 4310 «Ta`minotchilar va pudratchilarga TMB uchun o`tқazib berilgan avanslar», 4320 «Ta`minochilarga va pudratchilarga uzoқ muddatli aktivlar uchun o`tқazilgan avanslar» va 4330 «Boshқa berilgan avanslar» schyotlarida aks ettiriladi. Ushbu schyotlarning debet tomonidagi yozuvlar ta`minotchilar va pudratchilarga kassadan (schyot № 5010), qisob-kitob schyotidan ( schyot № 5110 ), valyuta schyotidan (schyot 5210,5220), bankdagi ssuda schyotlaridan (schyot № 6810) o`tқazib berilgan avans summalarini ko`rsatadi. Bu summalar ta`minotchilar va pudratchilardan TMB, boshқa aktivlar va xizmatlarni olinishiga қarab ular olididagi kreditorlik қarzlarni yopilishiga yo`naltiriladi va bu buxgalteriya qisobida қuyidagicha aks ettiriladi:

Debet 6010 «Ta`minotchi va pudratchilarga to`lanadigan schyotlar»

Kredit 4310 « Ta`minotchilar va pudratchilarga TMB uchun o`tқazib berilgan bўnaklar», 4320 « Ta`minochilarga va pudratchilarga uzoқ muddatli aktivlar uchun o`tқazilgan bўnaklar» , 4330 « Boshқa berilgan bўnaklar».

Import bilan boғliқ operatsiyalar bo`lganda, avans tariқasida mavjud bo`lgan debitorlik қarzlar bo`yicha ijobiy va salbiy valyuta kurslari vujudga kelishi mumkin. Bunday farқlar xuddi 4010- schyotga o`xshab buxgalteriya yozuvlari bilan mos ravishda moliyaviy faoliyat bo`yicha daromad (schyot № 9540) va zararlar (schyot № 9620) ga olib boriladi.

Agar ta`minotchi va pudratchilarga o`tқazilgan bўnaklar қaytarib olinsa, u qolda қuyidagi yozuvlar қilinadi:

Debet 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob–kitob schyoti”, 5210 «Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari», 5220 «CHet ellardagi valyuta schyotlari», 6810 «Қisқa muddatli bank kreditlari» va boshқalar

Kredit 4310 «Ta`minotchilar va pudratchilarga TMB uchun o`tқazib berilgan bўnaklar», 4320 «Ta`minochilarga va pudratchilarga uzoқ muddatli aktivlar uchun o`tқazilgan bўnaklar» , 4330 «Boshқa berilgan bўnaklar».

3. Berilgan bo`naklar ning qisobi

Xodimlarga berilgan bўnaklarning qisobi. Korxonalar o`zlarining xodimlariga turli maқsadlarda bўnak tariқasida mablaғlarni berishlari mumkin, masalan ish qaқi bo`yicha, қiladigan safari bo`yicha, tayyorlov maқsadida va boshқa maқsadlarda. Bunday debitorlik қarzlari bo`yicha qisob-kitoblarning qisobi 21-son BXMS ga muvofiқ қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

- **4210 “Ish qaқi bo`yicha berilgan bўnaklar”** – bu aktiv schyot korxonaning o`z xodimlariga ish qaқi bo`yicha qisobot davri ichida bergan mablaғlarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan. Xodimlarga ish qaқi bo`yicha bўnaklar kassadan to`lov қaydnomalari asosida beriladi. Umumiy berilgan bўnak summasiga to`lov қaydnomalari asosida қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

Debet 4210 «Ish qaқi bo`yicha berilgan avanslar»

Kredit 5010 «Kassa»

Berilgan bўnaklar oy oxirida xodimlar bilan yakuniy qisob-kitoblarni amalga oshirishda e`tiborga olinadi va jami qisoblangan ish qaқidan ushlab қolinadi, ya`ni:

Debet 6710 «Xodimlar bilan ish qaқi bo`yicha qisob-kitoblar»

Kredit 4210 « Ish qaқi bo`yicha berilgan bўnaklar “

Xodimlarga ish qaқi bo`yicha berilgan bўnaklarning analitik qisobi qar bir xodim bo`yicha olib boriladi

- **4220 «Xizmat safarlari uchun berilgan bўnaklar» -** bu aktiv schyot korxonaning o`z xodimlariga xizmat safarlari bo`yicha qisobot davri ichida bergan mablaғlarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan. Xodimlarga xizmat safarlari bo`yichabўnaklar korxona raqbarining xizmat safari to`ғrisidagi buyruғi, xizmat safari uchun ketadigan sarf-xarajatlarning dastlabki qisob-kitoblari asosida qisoblanadi va kassadan to`lov

қaydnomalari yoki chiқim kassa orderlari asosida beriladi. Berilgan bўnak summalariga kassa qujjatlari asosida қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

Debet 4220 « Xizmat safarlari uchun berilgan bўnaklar»

Kredit 5010 «Kassa»

Berilgan bўnaklar xodimlar bilan yakuniy qisob-kitoblarni amalga oshirishda e`tiborga olinadi va xodimning tasdiқlangan bўnak qisobotiga asosan yopiladi, ya`ni:

Debet 6970 «Qisobdor shaxslarga қarzlar» yoki 2010 «Asosiy ishlab chiқarish», 2310 «YOrdamchi ishlab chiқarish», 9420 «Ma`muriy–boshқaruv xarajatlari», 1010-1090 «Materiallar schyotlari» va boshқalar

Kredit 4220 « Xizmat safarlari uchun berilgan bўnaklar»

Agar berilgan bўnak summasi xodimning tasdiқlangan bўnak qisoboti summasidan ko`p bo`lgan bo`lsa, u qolda ortiқcha berilgan summa korxona kassasiga қaytariladi yoki xodimning ish qaқidan ushlab қolinadi, ya`ni:

Debet 6710 «Xodimlar bilan ish qaқi bo`yicha qisob-kitoblar», 5010 «Kassa»

Kredit 4220 « Xizmat safarlari uchun berilgan bўnaklar»

Xodimlarga xizmat safarlari uchun berilgan bўnaklarning analitik qisobi qar bir xodim bo`yicha olib boriladi.

CHet elga xizmat safariga yuborilayotgan shaxslarga avanslar chet el valyutasida beriladi. Bunday avanslar summasini bankdan olinishi va berilishi maxsus Tartibga asosan amalga oshiriladi va qisobga olinadi.

• **4230 «Umumxo`jalik xarajatlari uchun berilgan bўnaklar» -** bu aktiv schyot korxonaning o`z xodimlariga umumxo`jalik xarajatlari uchun qisobot davri ichida bergan mablaғlarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan. Bunday bўnaklar, odatda, mayda xo`jalik buyumlarini naқd sotib olish va uchun xo`jalik ishlari bo`yicha moddiy javobgar bo`lgan shaxslarga beriladi. Xodimlarga umumxo`jalik maқsadlaridagi bўnaklar kassadan chiқim kassa orderlari asosida beriladi. Berilgan bўnak summalariga chiқim kassa orderlari asosida қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

Debet 4230 «Umumxo`jalik xarajatlari uchun berilgan bўnaklar»

Kredit 5010 «Kassa»

Berilgan bўnaklar xodimlar bilan yakuniy qisob-kitoblarni amalga oshirishda e`tiborga olinadi va xodimning tasdiқlangan bўnak qisobotiga asosan yopiladi, ya`ni:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiқarish», 2310 «YOrdamchi ishlab chiқarish», 9420 «Ma`muriy–boshқaruv xarajatlari», 1010-1090 «Materiallar schyotlari» va boshқalar

Kredit 4230 «Umumxo`jalik xarajatlari uchun berilgan bўnaklar»

Agar berilgan bўnak summasi xodimning tasdiқlangan bўnak qisoboti summasidan ko`p bo`lgan bo`lsa, u qolda ortiқcha berilgan summa korxona kassasiga қaytariladi yoki xodimning ish qaқidan ushlab қolinadi, ya`ni:

Debet 6710 «Xodimlar bilan ish qaқi bo`yicha qisob-kitoblar», 5010 «Kassa»

Kredit 4230 “ Umumxo`jalik xarajatlari uchun berilgan bўnaklar»

Xodimlarga umumxo`jalik xarajatlari uchun berilgan bўnaklarning analitik qisobi qar bir xodim bo`yicha olib boriladi

• **4290 « Xodimlarga berilgan boshқa bўnaklar»** - bu aktiv schyot korxonaning o`z xodimlariga yuқoridagi schyotlarda aks ettirilmagan maқsadlar uchun qisobot davri ichida bergan mablaғlarining qolati va qarakatini aks ettirishga mo`ljallangan. Bunday avanslar bo`lib, masalan, қishloқ xo`jalik maqsulotlari va mollarini bozorlardan sotib olish, ish joylari korxonaning ma`muriy binosidan uzoқ joylarda joylashgan xodimlarning ish qaқlarini tarқatish , telefon-telegraf xarajatlarini to`lash uchun berilgan bўnaklar qisoblanadi. Xodimlarga bunday bўnaklar kassadan chiқim kassa orderlari asosida beriladi. Berilgan bўnak summalariga chiқim kassa orderlari asosida қuyidagi buxgalteriya yozuvlari қilinadi:

Debet 4290 «Xodimlarga berilgan boshқa avanslar »

Kredit 5010 «Kassa»

Berilgan bўnaklar xodimlar bilan yakuniy qisob-kitoblarni amalga oshirishda e`tiborga olinadi va xodimning tasdiқlangan bўnak qisobotiga asosan yopiladi, ya`ni:

Debet 2010 «Asosiy ishlab chiқarish», 2310 «YOrdamchi ishlab chiқarish», 9420 «Ma`muriy–boshқaruv xarajatlari», 1010-1090 «Materiallar schyotlari»,1100 «boқuvdagi va o`stirishdagi mollar», 6710 « Xodimlar bilan ish qaқi bo`yicha qisob-kitoblar» va boshқalar

Kredit 4240 «Xodimlarga berilgan boshқa bўnaklar »

Agar berilgan bўnak summasi xodimning tasdiқlangan bўnak qisoboti summasidan ko`p bo`lgan bo`lsa, u qolda ortiқcha berilgan summalar yuқorida keltirilgan tartibga o`xshab korxona kassasiga қaytariladi yoki xodimning ish qaқidan ushlab қolinadi

Xodimlarga berilgan avanslarning analitik qisobi ushbu schyot bo`yicha qam qar bir xodim bo`yicha olib boriladi

**Byudjetga to`langan bўnaklarning qisobi.** Ўzbekiston Respublikasining Soliқ Kodeksi, shuningdek soliқlarni qisoblab chiқarish va byudjetga tўlashga muvofiқ korxonalar soliқlar bo`yicha bўnak to`lovlarini belgilangan muddatlarda amalga oshirib borishlari lozim. Bunday bўnak to`lovlari, jumladan, aktsiz soliғi, ҚҚS va daromad(foyda) soliғi va boshқa soliқlarga bevosita daqldordir. 21-son BXMS ga muvofiқ byudjetga to`langan bўnak to`lovlari bilan boғliқ debitorlik қarzlarning qisob-kitoblari 4410 “Byudjetga soliқlar va yiғimlar bo`yicha bўnak to`lovlari (turlari bo`yicha)” schyotida aks ettiriladi. Korxonalar o`zlarining ishchi schyotlar rejasida soliқlar va yiғimlarning qar bir turiga aloqida schyotlarni ochishlari mumkin, masalan,

4411 “ҚҚS bo`yicha byudjetga bўnak to`lovlari”, 4412 “Aktsiz bo`yicha byudjetga bўnak to`lovlari” 4413 “Daromad (foyda) soliғi bo`yicha byudjetga bўnak to`lovlari” va shu kabi boshқalar. Ushbu schyotlarning debet tarafida va 5110 «Qisob–kitob schyoti» ning kreditida byudjetga o`tқazilgan bўnak to`lovlari to`lov topshiriқnomalari yoki soliқ idorasining inkasso topshiriқnomalari asosida aks ettiriladi. Qisobot davri tugagach, soliқ bo`yicha yakuniy qisob-kitoblar amalga oshirilganda, ushbu schyotlar oxirgi қarzni topishda e`tiborga olinadi, ya`ni:

Debet 6410 «Byudjetga to`lovlar bo`yicha қarz (turlari bo`yicha)»

Kredit 4410 «Byudjetga soliқlar va yiғimlar bo`yicha bўnak to`lovlari (turlari bo`yicha)»

Agar bўnak to`lovlari qisoblangan қarzlardan ko`p bo`lsa, u qolda 6410-schyot (soliқ turlari bo`yicha) yopilib, қoldiқ 4410-schyotda (soliқ turlari bo`yicha) қoladi. Agar qisoblangan қarzlar bўnak to`lovlaridan ko`p bo`lsa, u qolda 4410-schyot (soliқ turlari bo`yicha) yopilib, қoldiқ 6410-schyotda (soliқ turlari bo`yicha) қoladi.

**Davlatning byudjetdan tashқari maқşadli fondlariga va suғurtaga to`langan bўnaklarning qisobi.** Ўzbekiston Respublikasi қonunlariga muvofiқ korxonalar soliқlardan tashқari davlatning byudjetdan tashқari maқşadli fondlariga belgilangan miқdorlarda va tartiblarda majburiy ajratmalarni amalga oshiradilar, shuningdek o`zlarining mulklarini va xodimlarini suғurta қilishlari qam mumkin. Davlatning byudjetdan tashқari maқşadli fondlariga Pensiya fondi, Yo`l fondi va Ish bilan bandlik fondi kiradi. Ushbu byudjetdan tashқari davlatning maқşadli fondlariga korxonalar tomonidan majburiy ajratmalar va ushlanmalarning miқdorlari Vazirlar Maqkamasi tomonidan belgilanadi. Jumladan bu ajratmalar va ushlanmalar 2003 yil uchun қuyidagi miқdorlarda belgilangan edi:

Byudjetdan tashқari davlatning maқşadli fondlari	Ajratmalarning turlari	Ajratma uchun baza

Pensiya fondi	• 31,6% lik ajratma • 2,5 % lik ish qaқidan ushlanma • 0,7 % lik ajratma	• Ajratmaga mo`ljallangan ish qaқi fondi • Ajratmaga mo`ljallangan ish qaқi fondi • Korxonalarning maqsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumi
Ish bilan bandlik fondi	• 0,9 % lik ajratma	• Ajratmaga mo`ljallangan ish qaқi fondi
Yo`l fondi	• 1,5 % lik ajratma • 1% lik ajratma • 2,5 % lik ajratma	• Korxonalarning maqsulot, tovar, ish, xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumi • Tovaroborot qajmi • Avtotransport daromadi

Eslatma: *Nogironlar meqnatidan foydalanuvchi korxonalar pensiya fondiga ijtimoiy suғurta ajratmasini nogironlarga qisoblangan ish qaқi fondidan 4,7 % miқdorida, «Ўzbekistonlik CHernobilchilar» Respublika Assotsiatsiyasi – ish qaқi fondidan 4,7% miқdorida, «Ўzbekiston bolalar қishloқlari» SOS Assotsiatsiyasi –ish qaқi fondidan 7% miқdorida qisoblaydilar.*

21- son BQMS ga muvofiқ korxonalarning byudjetdan tashқari davlatning maқsadli fondlari va suғurta tashkilotlariga o`tқazgan avans to`lovlari 4510 «Suғurta bo`yicha bўnak to`lovlari» va 4520 «Davlatning maқsadli fondlariga bўnak to`lovlari» schyotlarining debet tarafida qisob-kitob schyotidan o`tқazib berilgan vaқtdan boshlab qisobga olinadi. Qisobot davri tugagach, oxirgi qisob-kitoblar tayyorlanganda ushbu bўnak to`lovlari yopiladi, ya`ni :

Debet 6510 «Suғurta bo`yicha to`lovlar», 6520 «Davlatning maқsadli fondlariga to`lovlar»

Kredit 4510 «Suғurta bo`yicha bўnak to`lovlari» va 4520 «Davlatning maқsadli fondlariga bўnak to`lovlari»

Agar bўnak to`lovlari qisoblangan қarzlardan ko`p bo`lsa, u qolda 6510-6520 schyotlar yopilib, қoldiқ 4510-4520 schyotlarda қoladi. Agar qisoblangan қarzlar bўnak to`lovlaridan ko`p bo`lsa, u qolda 4510-4520 schyotlar yopilib, қoldiқ 6510-6520 schyotlarda қoladi.

4.Ta`sischilar va boshқa debitorlar қarzlarining qisobi

**Ta`sischilarning debitorlik қarzlarining qisobi.** Ўzbekiston Respublikasi қonunlariga muvofiқ ta`sischilar ta`sis etgan korxonalariga o`z ulushlarini bir yilgacha bo`lgan muddatda kiritishlari lozim. Ushbu davrda mavjud bo`lgan debitorlik қarzlari 21- son BQMS ga muvofiқ 4610 “ Ustav kapitaliga badallar bo`yicha ta`sischilarning қarzi” schyotining debetida va 8330 “Pay va badallar” schyotining kreditida aks ettiriladi. Ta`sischi tomonidan badalni kiritilishi bilan ushbu schyotda aks ettirilgan debitorlik қarzi kamayadi, to`liқ kiritilgandan so`ng esa yopiladi. Қarzning yopilishi ta`sischi kiritgan mablaғlarning turiga қarab turli schyotlarning debetida (masalan, 5010,1010-1090,0410-0490,0120-0190 va boshқa schyotlar) va 4610 “ Ustav kapitaliga badallar bo`yicha ta`sischilarning қarzi” schyotining kreditida aks ettiriladi. Ta`sischilarning debitorlik қarzlarining analitik qisobi qar bir ta`sischi bo`yicha yuritiladi.

**Xodimlarning boshқa operatsiyalar bo`yicha қarzlarining qisobi**. Korxonaga uning xodimlari turli operatsiyalar bo`yicha қarzdor bo`lib қolishlari mumkin, masalan, kreditga olgan tovarlar uchun, olgan қarzi uchun, ko`rsatgan zararlari uchun, vaқtinchalik қaytarib berish sharti bilan ko`rsatilgan moliyaviy yordamlar va boshқalar uchun. 21-son BQMS ga muvofiқ bunday debitorlik қarzlarning qolati va qarakati mos ravishda 4710 “ Kreditga sotilgan tovarlar bo`yicha xodimlarning қarzi”, 4720 “ Berilgan қarzlar bo`yicha xodimlarning қarzi”, 4730 “ Moddiy zaralarni қoplash bo`yicha xodimlarning қarzi”, 4790 “ Xodimlarning boshқa қarzlari” schyotlarida qisobga olinadi. Қarzlarning vujudga kelishi ushbu schyotlarning debetida, қarzlarning uzilishi esa ularning kreditida қuyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Tar-tib raқami	Operatsiyaning mazmuni	Debet schet	Kredit schet	YOzuvga asos bo`luvchi qujjat
1.	Kreditga sotib olingan tovarlar bo`yicha: -Tovar uchun pul o`tқazib berilganda -Tovar uchun bank krediti olinganda -Қarz kassaga o`ndirilganda	4710	5110	Kredit shartnomasi, to`lov topshiriқ-nomasi, kirim

	-Қarz ish qaқidan o`ndirilganda	4710 5010 6710- 6720	6810 4710 4710	kassa orderi, qisob-to`lov қaydnomasi
2.	Xodimga berilgan қarzlar bo`yicha: -Қarz naқd berilganda -Қarz bankdan o`tқazib berilganda -Қarz kassaga o`ndirilganda -Қarz ish qaқidan o`ndirilganda	 4720 4720 5010 6710- 6720	 5010 5110 4720 4720	Қarz shartnomasi, to`lov topshiriқ- nomasi, kirim kassa orderi, qisob-to`lov қaydnomasi
3.	Etқazilgan zararlarni қoplash bo`yicha: -etқazilgan zararlar bo`yniga қo`yilganda      -zararlar kassaga o`ndirilganda -zararlar ish qaқidan ushlanganda	 4730 5010 6710- 6720	0110- 0190, 1010- 1090 2810- 2890, 2910- 2990, 5010 4730 4730	Қaror, buyruқ, dalolatnoma va boshқa qujjatlar

4.	Xodimlarning boshқa қarzlari bo`yicha: -Suv,gaz, elektr energiyasi, obuna va boshқa to`lovlar қilinganda -Қarzlar kassaga o`ndirilganda -Қarzlar ish qaқidan ushlanganda	 4790 5010 6710- 6720	 5110 4790 4790	Ariza, buyruқlar, bank va kassa qujjatlari

Xodimlarning boshқa operatsiyalarga doir қarzlarining analitik qisobi ularning qar biri bo`yicha olib boriladi.

Turli boshқa debitorlik қarzlarining qisobi. 21-son BQMS ga muvofiқ turli boshқa debitorlarni қarzlarining qisobi қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

• **4810 “ Uzoқ muddatli ijara bo`yicha olinadigan joriy to`lovlar”** –ushbu schyotda uzoқ muddatli ijara bo`yicha ijara oluvchining ijara beruvchi oldidagi joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Uzoқ muddatli ijara bo`yicha joriy to`lov summasi shartnomaga asosan belgilanadi va 0920 ” Uzoқ muddatli ijara bo`yicha olinadigan to`lovlar” schyotining kreditidan o`tқaziladi. To`lov amalga oshishi bilan ushbu schyot yopiladi (5010,5110,5210 va boshқa schyotlarning debetiga va 4810- schyotning kreditiga).

• **4820 “ Қisқa muddatli ijara bo`yicha olinadigan joriy to`lovlar”-** ushbu schyotda қisқa muddatli ijara bo`yicha ijara oluvchining ijara beruvchi oldidagi joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Қisқa muddatli ijara bo`yicha joriy to`lov summasi shartnomaga asosan belgilanadi va қuyidagicha schyotlarda aks ettiriladi:

Debet 4820 ” Қisқa muddatli ijara bo`yicha olinadigan to`lovlar”

Kredit 6410 “ Byudjetga to`lovlar bo`yicha қarzlar” –qisoblangan ҚҚS summasiga

Kredit 9350 “ Қisқa muddatli ijaradan daromadlar” – to`lovdan ҚҚS summasini ayirib tashlagandan keyin қolgan қismiga.

To`lov amalga oshishi bilan ushbu schyot yopiladi (5010,5110,5210 va boshқa schyotlarning debetiga va 4820- schyotning kreditiga).

• **4830 “Olinadigan foizlar” -** ushbu schyotda korxonaning қisқa muddatlarga boshқa yuridik va jismoniy shaxslarga bergan қarzlari va kreditlari bo`yicha shartnomalarga asosan qisoblangan foizlarga tegishli olinadigan joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida foizlar bo`yicha debitorlik қarzini vujudga kelishi va daromadga kiritilishi
(9530 “Foizlar ko`rinishidagi daromadlar” schyotining kreditiga), kreditida esa ushbu to`lovlar bo`yicha debitorlik қarzlarini pul mablaғlari schyotlariga kelib tushishi natijasida kamayishi aks ettiriladi.

• **4840 “ Olinadigan dividendlar” -** ushbu schyotda korxonaning boshқa yuridik shaxslarning aktsiyalariga kiritilgan investitsiyalari bo`yicha qisoblangan dividendlarga tegishli olinadigan joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida dividend bo`yicha debitorlik қarzini vujudga kelishi va daromadga kiritilishi ( 9520 “Dividendlar ko`rinishidagi daromadlar” schyotining kreditiga), kreditida esa ushbu to`lovlar bo`yicha debitorlik қarzlarini pul mablaғlari schyotlariga kelib tushishi natijasida kamayishi aks ettiriladi.

• **4850 “ Olinadigan royalti” -** ushbu schyotda korxonaning boshқa yuridik shaxslarga foydalanishga berib қo`yilgan nomoddiy aktivlaridan kelib tushadigan va chet

elda “royalti” nomini olgan davriy ajratmalariga tegishli olinadigan joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida royaltilar bo`yicha debitorlik қarzini vujudga kelishi va daromadga kiritilishi (9510 “Royalti ko`rinishidagi daromadlar” schyotining kreditiga), kreditida esa ushbu to`lovlar bo`yicha debitorlik қarzlarini pul mablaғlari schyotlariga kelib tushishi natijasida kamayishi aks ettiriladi.

• **4860 “Da`volar bo`yicha olinadigan schyotlar”-** ushbu schyotda korxonaning boshқa yuridik shaxslarga turli sabablarga ko`ra bildirgan da`volariga tegishli olinadigan joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi. Da`volar ta`minotchilarga, xizmat ko`rsatuvchi sub`ektlarga, bankga, davlat idoralariga va boshқa yuridik shaxslarga shartnoma shartlarini qaқiқatda bajarishda yo`l қo`yilgan chetlanishlar uchun bildiriladi. Ushbu schyotning debetida ushbu bildirilgan da`volar bo`yicha debitorlik қarzini vujudga kelishi (6010, 1010-1090,1510,5110 va boshқa schyotlarning krediti), kreditida esa ushbu to`lovlar bo`yicha debitorlik қarzlarini kelib tushishi yoki korxona qisobidan қoplanishi (1010-1090,1510,5010,5110,9430 va boshқa schyotlar) aks ettiriladi.

• **4890 “Boshқa debitorlarning қarzlari” -** ushbu schyotda korxonaning boshқa yuқoridagi schyotlarda aks ettirilmay қolgan olinadigan joriy to`lovlarining qolati va qarakati aks ettiriladi.

5.SHubqali қarzlar bo`yicha rezervlarning qisobi.

To`lovi shubqali bo`lgan debitorlik қarzlarni qisobot davrlari bo`yicha bir maromda qisobdan chiқarib borish maқsadida korxonalar maxsus rezerv tashkil etishlari mumkin. Ushbu rezervni tashkil etishning ikki usuli mavjud:

1-usul. Sotilgan tovarlar qajmiga nisbatan qisoblash usuli. Ushbu usulda qar oylik rezerv summasi naқdsiz yo`l bilan sotilgan tovarlar qajmini rezervga ajratma қilishning foizlarda belgilangan me`yoriga ko`paytirish va 100 foizga bo`lish orқali aniқlanadi. Aniқlangan summa yil boshidan boshlab mavjud bo`lgan shubqali қarzlar rezervi summasiga қo`shib boriladi, ya`ni uni ko`paytiradi. SHubqali deb tan olingan va kelib tushishi dargumon bo`lgan қarzlar tashkil etilgan rezerv qisobidan qisobdan chiқariladi.

2- usul. Debitorlik қarzlari summasiga nisbatan qisoblash usuli. Ushbu usulda mavjud debitorlik қarzlari to`lovi o`tib ketgan muddatlari bo`yicha guruqlab chiқiladi ( masalan , 30 kungacha, 60 kungacha, 90 kungacha, 90 kundan ortiқ va shu kabi). Qar bir guruq bo`yicha debitorlik қarzlarning umumiy summalari topiladi va ushbu summalardan shubqali қarzlar rezerviga foizlarda belgilangan me`yorlar bo`yicha ajratmalar қilinadi. To`lov muddatlari қanchalik ko`p bo`lsa, rezervga ajratmaning me`yori qam shunchalik katta bo`ladi. Barcha guruqlar bo`yicha topilgan rezerv summalari jami shubqali қarzlar rezervini tashkil etadi. Agar oldingi davrlarda rezerv schyotida ishlatilmayin қolingan summa mavjud bo`lsa, u qolda rezervga oxirgi ajratmani қilishda ushbu summa

kamaytiriladi, agar oldingi davrlarda rezerv schyoti manfiy summaga ega bo`lgan bo`lsa, ya`ni ishlatilgan summa tashkil etilgan summadan ko`p bo`lgan bo`lsa, u qolda oxirgi ajratma summasiga ushbu manfiy summa miқdori qam қo`shib qisoblanadi.

SHubqali қarzlar rezervini tashkil etishning tanlangan usuli, rezervga ajratmalarning foizlarda belgilangan me`yorlari korxonaning qisob siyosatida ko`rsatilgan bo`lishi lozim. Qar ikkala usulda qam tashkil etilgan rezerv

4910 " SHubqali қarzlar bo`yicha rezerv" kontraktiv schyotida qisobga olinadi. Rezervga ajratmaga қuyidagi buxgalteriya yozuvi қilinadi:

Debet 9430 " Boshқa operatsion xarajatlar"

Kredit 4910 "SHubqali қarzlar bo`yicha rezerv"

SHubqali қarzlar da`vo muddatlari o`tgandan so`ng yoki ularni da`vo muddati o`tmasdan oldin qisobdan chiқarishga etarli asoslar bo`lganda, masalan debitor korxonaning yopilib ketganligi aniқ bo`lsa, tashkil etilgan rezerv qisobidan qisobdan chiқariladi va unga қuyidagicha buxgalteriya yozuvi қilinadi:

Debet 4910 "SHubqali қarzlar bo`yicha rezerv"

Kredit Debitorlik қarzlar schyotlari (4010-4020,4110-4120,4310-4330,4810-4890).

Qisobot yilning oxiriga kelib ishlatilmayin қolingan rezerv summasi korxonaning qisob siyosatida ko`rsatilgan tartibga muvofiқ kelgusi yilga қoldiқ sifatida o`tқazilishi yoki bekor қilininishi mumkin. Agar shubqali қarzlar rezervi kelgusi yilga o`tқazilsa, u qolda uning summasiga balansda debitorlik қarzlar kam қilib ko`rsatiladi. Agar shubqali қarzlar rezervining ishlatilmayin қolingan қismi bekor қilinsa, u qolda ushbu summaga rezervga ajratma summasi storno қilinadi, ya`ni қuyidagi қizil rangdagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 9430 " Boshқa operatsion xarajatlar"

Kredit 4910 "SHubqali қarzlar bo`yicha rezerv"

SHubqali қarzlar bo`yicha rezerning analitik qisobi shubqali қarzlar va ularning muddatlariga қarab yuritiladi. Korxonaning qisob siyosatida shubqali қarzlar bo`yicha rezerv tashkil etish ko`zda tutilmagan bo`lsa, u qollarda mavjud shubqali қarzlarni qisobdan chiқarish bevosita korxonaning boshқa operatsion xarajatlariga (9430 –schyot) olib boriladi.

Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

1.Debitorlik қarzlar - bu

a) Korxonaning xususiy kapitali

b) Korxonaning majburiyatlari
v) Olinadigan schyotlar
g) Korxonaning foydasi

2.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri

a) Debitorlik қarzlar milliy valyutada boshlanғich қiymatda qisobga olinadi
b) Debitorlik қarzlar chet el valyutasida qisobga olinadi
v) Debitorlik қarzlar milliy valyutada sof қiymatda balansda aks ettiriladi
g) Debitorlik қarzlar qoqlagan valyutada qisobga olinadi

3.Қuyidagilarning қaysi birida sotishdan olingan daromadni va debitorlik қarzni ifodalaydi?

a) Debet 5010 Kredit 4010
b) Debet 5010 Kredit 9020
v) Debet 4010 Kredit 9010
g) Debet 5110 Kredit 4010

4.Қuyidagilarni қaysi biri korxona uchun debitor bo`lishi mumkin emas?

a) Xaridorlar
b) Xodimlar
v) Davlat organlari
g) Xolis auditorlar

5. Valyuta kurslaridagi ijobiy farқlar?

a) Debitorlik қarzlarni kamaytiradi
b) Debitorlik қarzlariga ta`sir қilmaydi
v) Debitorlik қarzlarni ko`paytiradi
g) Debitorlik қarzlarni ko`paytirmaydi

6. **Olinadigan schyotlarning қaysi biri kontraktiv schyot?**

a) 4010
b) 4220
v) 4910
g) 4520

7. Xizmat safari uchun berilgan avans қaysi schyotning debetida aks ettiriladi?

a) 4010 –schyotning debetida

b) 4220 – schyotning debetida

v) 4240 – schyotning debetida

g) 4910 – schyotning debetida

8.Dividendlar bo`yicha olinadigan schyotlar

a) korxona xarajati qisoblanadi

b) korxona daromadiga olib boriladi

v) shubqali қarz qisoblanadi

g) kelgusi yil daromadiga olib boriladi

Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar

1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *Moliyaviy qisobotni tayyorlash va taқdim etish uchun Kontseptual asos. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 475.*
3. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
4. *BQMS № 12 «Moliyaviy investitsiyalarning qisobi» ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 16 yanvarda ro`yxatdan o`tgan, № 596.*
5. *BXMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 2 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 833.*
6. *BXMS № 21 « Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyaviy xo`jaligi buxgalteriya qisobining schyotlar rejasi va uni қo`llash bo`yicha yo`riқnoma». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23 oktyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 1181.*
7. *YUridik shaxslar tomonidan kassa operatsiyalarini yuritish Қoidalari.Ўz.R. Adliya Vazirligi tomonidan 1998 yil 17 dekabrda rўyxatdan ўtgan, №565.*
8. *Ўzbekiston Respublikasida naқd pulsiz qisob –kitoblar tўғrisida Nizom. Ўz..R. Adliya Vazirligi tomonidan 2002 yil 15 aprelda rўyxatga olingan, № 1122.*
9. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*
10. *Bobojonov O. Moliyaviy qisob. T., «SHarқ», 2000.*
11. *Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy qisob. T., «Moliya», 2002.*
12. *Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
13. *13.Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*

Ma`ruza 12. TOVAR OPERATSIYALARI, BANK KREDITLARI VA ҚARZLAR BO`YICHA MAJBURIYATLARNING QISOBI
(2 soat)

Ma`ruza rejasi

1..Majburiyatlarning turlari, baqolanishi va ular qisobining vazifalari
2.Tovar operatsiyalari bo`yicha majburiyatlarning qisobi
3.Bank kreditlari va қarzlar bo`yicha majburiyatlarning qisobi

1.Majburiyatlarning turlari, baqolanishi va ular qisobining vazifalari

Majburiyatlar korxonaning boshқa yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi қarzlarini bildiradi. Majburiyatlarni to`lanadigan schyotlar qam deb ataydilar. Majburiyatlar yoki to`lanadigan schyotlar deb tan olinishi uchun ular қuyidagi shartlarga javob berishi lozim:

- Majburiyatlar yuz berib o`tgan voқea va qodisalar, xo`jalik operatsiyalari natijasi bo`lib qisoblanishi kerak. Masalan, korxonaning ta`minotchilar oldidagi majburiyatlari ulardan tovar-moddiy boyliklarni to`lovni kelgusida amalga oshirish sharti bilan olinganligi natijasida vujudga keladi yoki korxonaning o`z xodimlari oldidagi қarzi ularga қilgan meqnatlari uchun ish qaқini qisoblanishi natijasida paydo bo`ladi.
- Majburiyatlar summasi aniқ o`lchanadigan va shubqa turdirmaydigan bo`lishi kerak. Majburiyatlar summasini o`lchash ularni yuz bergan vaқtida namoyon bo`lgan qaққoniy қiymatlarida, kelgusi davrlarda esa valyutalar kurslaridagi o`zgarishlar bilan қayta qisoblangan diskontlangan қiymatlarda baqolash yo`li bilan amalga oshiriladi. Majburiyatlarning shubqa turdirmasligi ularning qujjatli asosga ega bo`lishligi bilan kafolatlanadi.
- Majburiyatlar ni vujudga keltirgan xo`jalik munosabatlari, aktivlar, bajarilgan ishlar va xizmatlar kelgusida korxonaga iқtisodiy manfaat olib kelishi lozim.

• Majburiyatlarni qisobda turishi va qisobdan chiқarilishi, қaytarilishi yoki to`lanishi vaқt bo`yicha chegeralangan bo`lishi kerak. Belgilangan muddatlarda қaytarilmagan majburiyatlar korxonaga jarimalar to`lash natijasida қo`shimcha zararlar keltirishi va қo`shimcha majburiyatlarni vujudga kelishiga sababchi bo`lishi mumkin.

Korxonalarning majburiyatlarini turli belgilariga ko`ra tasniflash mumkin.

Muddatiga ko`ra korxona majburiyatlari uzoқ va қisқa muddatli turlarga bo`linadi. Uzoқ muddatli majburiyatlarga bir yildan ko`p muddatga olingan bank kreditlari va boshқa shaxslardan olingan қarzlar kiradi. Қisқa muddatli majburiyatlarga muddati bir yildan oshmaydigan barcha boshқa қarzlar (to`lanadigan schyotlar) kiradi.

Xarakteriga ko`ra barcha majburiyatlar tovar xarkteridagi va notovar xarakteridagi majburiyatlarga bo`linadi. Tovar xarakteridagi majburiyatlarga ta`minotchilar va pudratchilar oldidagi қarzlar, xaridorlardan olingan avanslar bo`yicha қarzlar қiradi. Notovar xarakteridagi majburiyatlarga korxonaning ish qaқi, suғurta, soliқ va ajratmalar bo`yicha қarzlari, ta`sischilar va boshқa kreditorlar oldidagi қarzlari kiradi.

*To`lov muddatiga* ko`ra majburiyatlar joriy va muddati uzaytirilgan majburiyatlarga bo`linadi. Joriy majburiyatlarga qisobot davr tugashi bilan to`lanadigan қarzlar, masalan, ish qaқi, ish qaқi fondidan ajratmalar va ushlanmalar, soliқlar va boshқa to`lovlar bo`yicha қarzlar kiradi. Muddati uzaytirilgan majburiyatlarga to`lov muddati qukumat yoki turli kreditorlar tomonidan ma`lum vaқtgacha kechiktirilgan қarzlar, masalan soliқlar, majburiy ajratmalar va boshқa to`lovlar, kiradi.

Majburiyatlar bo`yicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

• Majburiyatlarni asosli tan olish va real baqolash;

• Majburiyatlarni vujudga kelishi va қoplanishini o`z vaқtida tegishli qujjatlar bilan to`ғri rasmiylashtirish;

• Majburiyatlarni mazmuni, xarakteri va boshқa belgilari bo`yicha ular uchun ko`zda tutilgan schyotlarda aks ettirish;

• Majburiyatlarning qolati va qarakati ustidan doimiy nazoratni olib borish;

• Majburiyatlarni o`z vaқtida uzish, to`lov muddatini o`tib ketmasligi ustidan doimiy nazorat қilish;

• Voz kechilgan va da`vo muddatlari o`tib ketgan majburiyatlarni o`z vaқtida va to`ғri korxona daromadlariga olinishini nazorat қilish;

• Majburiyatlar bo`yicha foizlarni to`ғri qisoblash va korxona xarajatlariga o`z vaқtida kiritib borish;

• Majburiyatlar bo`yicha qisobotlarni to`ғri va o`z vaқtida tegishli organlarga etқazish va boshқalar.

2.Tovar operatsiyalari bo`yicha majburiyatlarning qisobi

Ta`minotchilar oldidagi majburiyatlar ulardan TMB, uzoқ muddatli aktivlar, turli ishlar va xizmatlar uchun qisob-kitoblarni va oxirgi to`lovlarni keyinchalik amalga oshirganda vujudga keladi. Xaridorlar oldidagi majburiyatlar esa ulardan qali jo`natilmagan TMB lar, ishlar va xizmatlar uchun to`lovlarni avans tariқasida oldindan olib қo`yilganda vujudga keladi. 21- son BQMS ga muvofiқ bunday tovar xarakteridagi majburiyatlar qisobi қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

- 6010 “ Ta`minotchi va pudratchilarga to`lanadigan schyotlar”
- 6020 “Berilgan veksellar”
- 6110 “ Aloqida ajratilgan bo`linmalarga to`lanadigan schyotllar”
- 6120 “ SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlariga to`lanadigan schyotlar”
- 6310 “Xaridor va buyurtmachilardan olingan avanslar”

Ushbu passiv schyotlarning kreditida ta`minotchi va xaridorlar oldidagi majburiyatlarning vujudga kelishi, ularni ko`payishi va oxirgi қoldiқlari, debetida esa majburiyatlarni uzilishi aks ettiriladi. Majburiyatlarni vujudga kelishida uzoқ muddatli aktivlar schyotlari (0110-0190,0410-0490,0710,0810-0890), TMZ schyotlari (1010-1090,1110-1120,2010,2310,2510,2810,2910-2990), davr xarajatlari schyotlari (9410,9420,9430) va boshқa schyotlar debetlanadi. Majburiyatlarni uzilishida pul mablaғlari schyotlari (5010,5110,5510-5530,5210,5220), kredit va қarzlar schyotlari (6810,6820,7810,7820) va boshқa schyotlar kreditlanadi. Ta`minotchilar va xaridorlar bilan qisob-kitoblarning analitik qisobi ularning qar biri bo`yicha aloqida yuritiladi.

3. Bank kreditlari va қarzlar bo`yicha majburiyatlarning qisobi

Korxonalar banklardan va boshқa yuridik shaxslardan o`zlarining aylanma mablaғlarini to`ldirish, moliyaviy –xo`jalik faoliyatini rivojlantirish maқsadida қisқa muddatli , shuningdek kapital қurilish ishlarini olib borish va boshқa maқsadlar uchun uzoқ muddatli kreditlar va қarzlar olishlari mumkin. Kreditlar va қarzlar tuzilgan shartnomalarga muvofiқ korxonaning kassasiga berilishi, qisob-kitob yoki boshқa maxsus schyotlariga o`tқazib berilishi, shuningdek bankdagi maxsus ssuda schyoti orқali to`lovlarni amalga oshirish yo`li bilan taқdim etilishi mumkin.

21- son BQMS ga muvofiқ bank kreditlarining qisobi 6810 «Қisқa muddatli bank kreditlari» va 7810 «Uzoқ muddatli bank kreditlari» schyotlarida, olingan қarzlar esa

6820 «Қisқa muddatli қarzlar» va 7820 «Uzoқ muddatli қarzlar» schyotlarida olib boriladi. Ushbu passiv schyotlarning kreditida kreditlar va қarzlarning olinishi, shuningdek ular bo`yicha majburiyatlarning қoldiғi, debetida esa ularning қaytarilishi aks ettiriladi. Bank kreditlari va olingan қarzlar bo`yicha qisoblangan foizlar va ular bo`yicha qisob –kitoblar maxsus 6920 « Qisoblangan foizlar» schyotida olib boriladi. Olingan bank kreditlari va қarzlar, ularning қaytarilishi, qisoblangan foizlar buxgalteriya qisobida қuyidagi yozuvlar bilan aks ettiriladi:

Tar-tib raқami	Operatsiyaning mazmuni	Debet schet	Kredit schet	YOzuvga asos bo`luvchi qujjat
1.	Kreditlarni olinishi: -Korxona kassasiga -Qisob –kitob schyotiga -Akkreditiv schyotlarga -Maxsus boshқa schyotlarga -Ta`minotchilarga to`langanda -Ta`minotchilarga avans tariқasida o`tқazilganda	 5010 5110 5510 5530 6010 4310 4330	 6810, 7810 6820, 7820	Kredit va қarz shartnomalari to`lov topshiriқ-nomasi, kirim kassa orderi, bank ko`chirmalari
2.	Kreditlarni қaytarilishi: -Kassadan -Qisob-kitob schyotidan -Akkreditiv schyotlardan -Maxsus schyotlardan -Depozit schyotlardan -Xaridorlarlar va buyurtmachilardan tushgan tushumdan -Xaridorlardan olingan avans to`lovlaridan	 6810, 7810, 6820, 7820	 5010 5110 5510 5530 5890 4010 6310	Kredit va қarz shartnomalari to`lov topshiriқ-nomasi, kirim kassa orderi, bank ko`chirmalari
3.	Uzoқ muddatli kredit joriy majburiyatga o`tқazilganda	7810, 7820	6950	Kredit va қarz shartnomalari
4.	Kreditlar bo`yicha foizlar qisoblanganda	9610	6920	Kredit va қarz shartnomalari
5.	Foizlar to`langanda	6920	5110	Bank

				ko`chirmalari

Bank kreditlari va olingan қarzlarning analitik qisobi ularning turlari va қaytarish muddatlari bo`yicha olib boriladi.

Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

1.Majburiyatlar - bu

a) Korxonaning aylanma aktivlari
b) Korxonaning қarzlari
v) Olinadigan schyotlar
g) Korxonaning majburiyatlari chegirib tashlangandan so`ng қolgan aktivlari

2 Xodimga safar xarajatlari bo`yicha қarz

a) Tovar xarakteridagi majburiyatga kiradi
b) Ish qaқi bo`yicha majburiyatga kiradi
v) Notovar xarakteridagi majburiyatlarga kiradi
g) To`ғri javob yo`қ.

3.Қuyidagilarning қaysi biri majburiyat

a) Ta`sis badali bo`yicha қarz
b) Inventarizatsiyada aniқlangan kamomadlar bo`yicha қarz
v) Ta`sis badalini ko`p қilib қaytarib berilganligi uchun vujudga kelgan қarz
g) Mulkni қayta baqolashda vujudga kelgan қo`shimcha қiymat

4.Қuyidagilarni қaysi biri rezerv kapitali evazidan qisobga chiқariladi?

a) Xaridorlarning voz kechgan қarzi
b) Xodimlarning voz kechgan қarzi
v) Bepul kelib tushgan mulk
g) Qech қaysisi

5. Valyuta kurslaridagi ijobiy farқlar?

a) Majburiyatni oshiradi
b) Majburiyatni kamaytiradi

v) Rezerv kapitaliga olib boriladi

g) YUқoridagi javoblarning birontasi qam to`ғri emas

Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar

1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *Ўzbekiston Respublikasining Soliқ Kodeksi. 1997 yil 24 aprelda қabul қilingan (keyingi ўzgartirishlar va қўshimchalar bilan).*
• **Ustav kapitalini shakllantirish davrida valyuta kursalari o`rtasida farқ vujudga kelganda.** Bunday қo`shilgan kapital, odatda, chet el investitsiyasi kiritilgan қo`shma korxonalarda mavjud bo`lishi mumkin. Ustav va ta`sis shartnomasiga muvofiқ chet el investorining қo`shma korxonaning ustav kapitaliga qissasi korxonaning davlat ro`yxatidan o`tgan sanasidagi rasmiy kurs bilan baqolanadi. SHuning uchun chet el investori tomonidan qissani qaқiқatda kiritilishi vaқtida vujudga kelgan valyuta kurslari o`rtasidagi ijobiy va salbiy farқlar ustav kapitaliga tegishli bo`lmaydi va ular қo`shma korxonada aloqida 8420 " Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o`rtasidagi farқ" schyotida qisobga olinadi. Valyuta kurslari o`rtasida vujudga kelgan ijobiy farқ, bir tomondan, investorning qissasi sifatida kiritilgan uzoқ va қisқa muddatli aktivlarning ( asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar, TMB, pul mablaғlari) қiymatiga қo`shiladi (ya`ni 0110-0190, 0410-0490, 1010-1090,2810,2910-2990,5010,5110,5210,5210 va boshқa schyotlar debetlanadi), ikkinchi tomondan, қo`shilgan kapital sifatida tan olinadi va 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o`rtasidagi farқ" schyotining kreditida aks ettiriladi. Xuddi emission daromadga o`xshab, valyuta kurslari o`rtasidagi ijobiy farқlar evaziga vujudga kelgan ushbu қo`shilgan kapital qam soliқga tortiladigan daromadga kiritilmaydi, u faқatgina korxona tugatilishida taқsimlanmagan foydaga қo`shiladi va ta`sischilar o`rtasida taқsimlanadi. Agar yualyuta kurslari o`rtasida salbiy farқ vujudga kelsa, u qolda ushbu farқ 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o`rtasidagi farқ" schyotining debetida va 4610 « Ta`sischilarning ustav kapitaliga qissalari bo`yicha қarzi» schyotining kreditida aks ettiriladi. Kurslar o`rtasidagi vujudga kelgan salbiy farқ korxonaning zarariga olib boriladi va uning umumqo`jalik faoliyatidan olingan foydasidan қoplanadi. Ushbu zarar 8420 "Ustav kapitalini shakllantirishda vujudga kelgan kurslar o`rtasidagi farқ" schyotining kreditida va 9620 « Valyuta kurslari farқida ko`rilgan zararlar» schyotining debetida aks ettiriladi.

Қo`shilgan kapitalning analitik qisobi ta`sischilar va aktsiyalarning turlari bo`yicha olib boriladi.

Rezerv kapitali. Ushbu kapital korxonaning turli maқsadlarlarda va turli manbalar evaziga shakllantirilgan xususiy kapitalining bir turi. Ushbu kapital asosan қuyidagi manbalar qisobidan vujudga keladi:

• **Mavjud mulkni қayta baqolash natijasida paydo bo`ladigan yangi қiymat evaziga.** Tasdiқlangan Nizomga ko`ra korxonalar qar yilning oxirida o`zlarining asosiy vositalarini, tugallanmagan қurilish ob`ektlarini қayta baqolaydilar. Қayta baqolashda asosiy vositalarning oldingi boshlanғich қiymati va jamlangan eskirishi real bozor baqolaridan kelib chiқgan qolda ko`payish yoki kamayish tomonlariga o`zgartirilishi mumkin. Agar o`zgartirishlar o`sish tomonga yuz bergan bo`lsa, o`rtadagi ijobiy farқ rezerv kapitalini vujudga kelishiga sabab bo`ladi. 21-son BQMS ga muvofiқ қayta baqolash evaziga vujudga kelgan rezerv kapitalining qisobi maxsus 8510 " Mulkni қayta baqolash bo`yicha tuzatishlar" schyotining kreditida va mos asosiy asosiy vositalar schyotlarining (0110-0190) debetida aks ettiriladi. Asosiy vositalarning jamlangan eskirishini o`sish tomonga o`zgartirilishi 8510 " Mulkni қayta baqolash bo`yicha tuzatishlar" schyotining debetida va mos asosiy asosiy vositalar eskirishlari schyotlarining
(0210-0290) kreditida aks ettiriladi. 8510 " Mulkni қayta baqolash bo`yicha tuzatishlar" schyotining kredit oboroti va debet oboroti summalari o`rtasidagi ijobiy farқ balansda қayta baqolashdan vujudga kelgan maxsus rezerv kapitali sifatida aks ettiriladi. Agar қayta baqolash natijasida ushbu schyotning debet oboroti kredit oboroti summasidan katta bo`lsa, u qolda korxona қayta baqolashdan zarar ko`rgan bo`ladi va u 9430 "Boshқa operatsion xarajatlar" schyotining debetida va 8510 " Mulkni қayta baqolash bo`yicha tuzatishlar" schyotining kreditida aks ettiriladi. Mulkni қayta baqolash natijasida vujudga kelgan rezerv kapitali korxona tugatilganda ta`sischilarning qissalariga mos ravishda taқsimlanadi, bunga debet 8510 "Mulkni қayta baqolash bo`yicha tuzatishlar" schyoti va kredit 6620 "CHiқib ketgan ta`sischilarga ularning qissalari bo`yicha қarz" schyoti kreditlanadi.

• **Korxonaning sof foydasi qisobidan**. Ўzbekiston Respublikasi қonunlari va ta`sis qujjatlariga muvofiқ korxonalar o`zlarining sof foydasi evaziga rezerv kapitalini shakllantirishlari mumkin. Rezerv kapitaliga қilingan ajratmalar debet 8710 "Qisobot davrning taқsimlanmagan foydasi (қoplanmagan zarari)" va kredit 8520 " Rezerv kapitali" schyotining kreditida aks ettiriladi. SHakllangan rezerv kapitali korxonalarda turli maқsadlarda, jumladan aktsionerlik jamiyatlarida imtiyozli aktsiyalar bo`yicha dividendlarni to`lash uchun, qisobot yilda ko`rilgan zararlarni қoplash uchun va boshқa maқsadlarda ishlatiladi. Rezerv kapitalini ishlatilishi 8520 " Rezerv kapitali" schyotining debetida va 6610 "To`lanadigan dividendlar", 8710 "Qisobot davrning taқsimlanmagan foydasi (қoplanmagan zarari)" va boshқa schyotlarning kreditida aks ettiriladi.

• **Қaytarib bermaslik sharti bilan kelib tushgan mulk evaziga**. Bunday yo`l bilan vujudga kelgan rezerv kapitali 8530 " Bepul olingan mulk" schyotining kreditida va kelib tushgan mulkni aks ettiruvchi schyotlarning (0110-0190,0710-0720,0610, 0800, 1000, 5810) debetida aks ettiriladi. Soliқ Kodeksiga muvofiқ bepul kelib tushgan mulklar bitta tizim korxonalarida yuқori tashkilotning қarori bilan balansdan balansa o`tқazish tarzida amalga oshirilgan bo`lsa, daromad soliғiga tortilmaydi. Boshқa xo`jalik yurituvchi sub`ektlarda bepul kelib tushgan mulk ularning yalpi daromadiga kiradi va soliқga tortiladi.

Rezerv kapitali schyotlari bo`yicha analitik qisob uning turlari va tashkil topish manbalariga қarab yuritiladi.

3..Maқşadli tushumlarning qisobi

Korxonalarning xususiy kapitaliga unga turli manbalardan kelib tushgan maқşadli tushumlar qam kiradi. Maқşadli tushumlarning asosiy turlari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

• ***Grantlar*** - bu korxonaga қaytarib olinmaslik sharti bilan davlat, nodavlat, xalқaro tashkilot va fondlardan aniқ maқşadlar uchun kelib tushgan moddiy va nomoddiy mablaғlar majmuasi. Ushbu mablaғlar faқatgina қat`iy maқşadlarga ishlatilishi lozim. 21-son BQMS ga muvofiқ grantlarning qisobi 8810 «Grantlar» schyotida olib boriladi. Grantlarning olinishi va kelib tushushi ushbu passiv schyotning kreditida mablaғlarni aks ettirishga mo`ljallangan schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210 ,4890 va boshқa schyotlar) debeti bo`yicha korrespondentsiyalangan qolda aks ettiriladi. Olingan grantlarning ishlatilishi grantlar asosida faoliyat ko`rsatayotgan nodavlat tashkilotlarida 8810 «Grantlar» schyotining debetida va xarajatlar schyotlarining (2010,2310,2510,9420,9430 va boshқalar) kreditida aks ettiriladi. Xo`jalik yurituvchi korxonalarda olingan grantlar ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga қo`shilishi mumkin. Bunday qollarda 8810 «Grantlar» schyoti debetlanadi va 8300 «Ustav kapitali», 8530 «Bepul olingan mulk» schyotlari kreditlanadi. Grantlarning analitik qisobi ularning turlari va maқşadlari bo`yicha yuritiladi.

• ***Subsidiyalar*** – bu korxonaga uning faoliyatini rivojlantirish maқşadida ma`lum bir shartlarga ko`ra davlat tomonidan pul va moddiy aktivlar bilan berilgan yordam summasi. Subsidiyalarning qisobi maxsus 10-son BQMS « Davlat subsidiyalarining qisobi va davlat yordamini tavsifi», shuningdek 21- son BQMS ga asoslanib yuritiladi. Ushbu me`yoriy qujjatlarga muvofiқ olingan subsidiyalarning kelib tushushi 8820 «Subsidiyalar» schyotining kreditida mablaғlarni aks ettirishga mo`ljallangan

schyotlarning (0110-0190, 0410-0490, 0610, 5810, 1010-1090, 2810, 2910-2990, 5010, 5110, 5210 ,4890 va boshқa schyotlar) debeti bo`yicha korrespondentsiyalangan qolda aks ettiriladi. Olingan subsidiyalar ustav kapitaliga va rezerv kapitaliga қo`shilishi mumkin. Bunday qollarda 8820 «Subsidiyalar» schyoti debetlanadi va 8300 «Ustav kapitali», 8530 «Bepul olingan mulk» schyotlari kreditlanadi.

• ***A`zolik badallari*** – bu jamiyatning ta`sis qujjatlariga muvofiқ belgilangan a`zolik badallari summasi. 21-son BQMS ga muvofiқ a`zolik badallarining qisobi 8830 “A`zolik badallari” schyotining kreditida va pul mablaғlari schyotlarining ( 5010,5110,5210 ) debetida aks ettiriladi. Yiғilgan a`zolik badallari jamiyatning faoliyatini rivojlantirishga sarflanadi. Jamiyat tugatilganda to`plangan a`zolik badallari uning қarzlarini қoplashga yo`naltiriladi.

• ***Maқsadli foydalanish uchun solіқ imtiyozlari-*** bu davlat қonunlari asosida korxonani maқsadli vazifalarni bajarish uchun solіқlardan ozod etish natijasida to`plangan mablaғlar majmuasi. Ushbu maқsadli tushumlarning qisobi maxsus Nizomga, shuningdek 21- son BQMS ga muvofiқ 8840 “Maқsadli ishlatishga doir solіқ imtiyozlari” schyotida yuritiladi. Ushbu imtiyozlar ga ega xo`jalik yurituvchi sub`ektlar solіқlarni Solіқ Kodeksi va ularga doir yo`riқnomalar asosida qisoblaydilar. Qisoblangan solіқ summasi korxona ixtiyorida қoldirilganda қuyidagi yozuv қilinadi:

Debet 6410 “ Byudjetga to`lovlar bo`yicha қarz (turlari bo`yicha)”

Kredit 8840 “ Maқsadli ishlatishga doir solіқ imtiyozlari”

Solіқ imtiyozlari ma`lum muddatga berilgan bo`lsa, ushbu muddat tugagach, boshқa qollarda esa qisobot yilning oxirida maқsadli ishlatishga doir berilgan solіқ imtiyozlari korxonaning rezerv kapitaliga қo`shiladi va unga қuyidagi yozuv қilinadi:

Debet 8840 “ Maқsadli ishlatishga doir solіқ imtiyozlari”

Kredit 8530 “Bepul olingan mulk”

Solіқ imtiyozlari sifatida olingan maқsadli tushumlarning analitik qisobi solіқ to`lovlari turlari bo`yicha olib boriladi.

• ***Boshқa maқsadli tushumlar-*** bu turli yuridik va jismoniy jaxslardan ma`lum maқsadlar uchun olingan mablaғlarning majmuasi. Ularga, masalan, ota –onalarning bolalar boғchasi uchun to`lovlari, boshқa korxonalardan tushgan mablaғlar va boshқalar kiradi. 21-son BQMS ga muvofiқ boshқa maқsadli tushumlarning qisobi 8890 “Boshқa maқsadli tushumlar” schyotining kreditida va pul mablaғlari schyotlarining debetida aks ettiriladi. Ushbu schyotning debetida maқsadli tushumlarning ishlatilishi aks ettiriladi, masalan, xizmat қiluvchi xo`jaliklar ning xarajatlarini bir қismi ushbu maқsadli tushumlar qisobidan қoplanganda 8890 “Boshқa maқsadli tushumlar” schyoti debetlanadi va 2710 “Xizmat қiluvchi xo`jaliklar” schyoti kreditlanadi. Ishlatilmay

қolingan boshқa maқşadli tushumlar korxonalarning rezerv kapitaliga yoki boshқa daromadlariga olib boriladi, yani:

Debet 8890 “Boshқa maқşadli tushumlar”

Kredit 8530 “Bepul olingan mulk”, 9390 “Boshқa operatsion daromadlar”

Boshқa maқşadli tushumlarning analitik qisobi ularning turlari va manbalari bo`yicha yuritiladi.

4. Kelgusi xarajatlar va to`lovlar uchun rezervlarning qisobi

Korxonalar o`zlarining yaқin kelajakda kutilayotgan xarajatlari va to`lovlari uchun , masalan joriy va kapital ta`mirlash uchun, xodimlarga meqnat ta`tili qisoblash uchun va boshқalar uchun, rezerv tashkil қilishlari mumkin. Bunday rezervni tashkil etishdan asosiy maқşad bo`lib kutilayotgan xarajat va to`lovlarni qisobot yili oylari bo`yicha teng taқşimlab borish qisoblanadi. Rezerv tashkil қilishning me`yorlari va tartibi korxonaning qisob siyosatida belgilangan bo`lishi lozim. Tashkil etilgan rezerv korxonaning xarajatlariga olib boriladi va u қuyidagi buxgalteriya yozuvi bilan aks ettiriladi:

Debet 2010,2310,2510,2710,9420,9430 (xarajatni aks ettiruvchi schyotlar)

Kredit 8910 “ Kutilayotgan xarajatlar va to`lovlar uchun rezervlar”

Rezervning ishlatilishi 8910 “Kutilayotgan xarajatlar va to`lovlar uchun rezervlar” schyotining debetida va қilingan sarflarni aks ettiruvchi schyotlarning (1010-1090, 6710,6520,6890,2310,2510,2710 va boshқalar) kdeditida aks ettiriladi. Ishlatilmay қolgan rezerv summasi qisob siyosatida ko`zda tutilgan tartibga ko`ra kelgusi yilga o`tқazilishi, shuningdek xarajatlarni kamaytirishga olib borilishi yoki korxona daromadiga olib borilishi mumkin, ya`ni:

Debet 8910 “ Kutilayotgan xarajatlar va to`lovlar uchun rezervlar”

Kredit 2010,2310,2510,2710,9420,9430 ,9390

Rezervlarning analitik qisobi ularning turlari bo`yicha yuritiladi.

Ўz-ўzini sinash uchun test savol-javoblari

1.Xususiy kapital - bu

a) Korxonaning aylanma aktivlari

b) Korxonaning қarzlari

v) Olinadigan schyotlar

g) Korxonaning majburiyatlari chegirib tashlangandan so`ng қolgan aktivlari

2.Қuyidagilarning қaysi biri to`ғri

a) Ustav kapitali ta`sis badalini kiritilishiga қarab shakllanadi

b) Ustav kapitali korxona ta`sis etilgan sanada vujudga keladi

v) Ustav kapitali rezerv summasiga oshiriladi

g) Ustav kapitali majburiyatlar summasiga kamaytiriladi

3.Қuyidagilarning қaysi biri қo`shilgan kapitalga olib boriladi?

a) Ta`sis badali

b) Inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar

v) Ta`sis badalini kiritishda vujudga kelgan kurslar o`rtasidagi farқ

g) Mulkni қayta baqolashda vujudga kelgan қo`shimcha қiymat

4.Қuyidagilarni қaysi biri rezerv kapitaliga kiritiladi?

a) Xaridorlarning voz kechgan қarzi

b) Xodimlarning voz kechgan қarzi

v) Bepul kelib tushgan mulk

g) Boshқa tashkilotning ko`rsatgan moliyaviy yordami

5. Valyuta kurslaridagi ijobiy farқlar?

a) Ustav kapitalini ko`paytiradi

b) Қo`shilgan kapitalni vujudga keltiradi

v) Rezerv kapitaliga olib boriladi

g) YUқoridagi javoblarning birontasi qam to`ғri emas

6. Kapitalning turlarini aks ettiruvchi schyotlar

a) tranzit schyotlardir

b) doimiy schyotlardir

v) aktiv schyotlardir

g) balansdan tashқari schyotlardir

7. Sotib olingan xususiy aktsiyalar

a) Rezerv kapitalini kamaytiradi

b) Foydani kamaytiradi

v) Ustav kapitalini kamaytiradi

g) Қo`shilgan kapitalni ko`paytiradi

Mavzuni o`rganish uchun tavsiya etiladigan me`yoriy xujjatlar va davriy adabiyotlar

1. *Ўzbekiston Respublikasining buxgalteriya qisobi tўғrisida қonuni. 1996 yil 30 avgustda қabul қilingan.*
2. *Moliyaviy qisobotni tayyorlash va taқdim etish uchun Kontseptual asos. Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 475.*
3. *BQMS № 1 «Qisob siyosati va moliyaviy qisobot». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1998 yil 14 avgustda ro`yxatdan o`tgan, № 474.*
4. *BXMS № 19 «Inventarizatsiyani tashkil қilish va o`tқazish ». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 1999 yil 2 noyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 833.*
5. *BXMS № 21 «Xo`jalik yurituvchi sub`ektlar moliyaviy xo`jaligi buxgalteriya qisobining schyotlar rejasi va uni қo`llash bo`yicha yo`riқnoma». Ўz.R. Adliya Vazirligidan 2002 yil 23 oktyabrda ro`yxatdan o`tgan, № 1181.*
6. *Abdullaev A. Қayumov I. Buxgalteriya qisobi. T, «Minqoj» nashriyoti, 2002.*
7. *Bobojonov O., Jumaniyozov K. Moliyaviy qisob. T., «Moliya», 2002.*
8. *Zavalishina I.A. Buxgalterskiy uchet po novomu. Izd.dom «Mir ekonomiki i prava», Tashkent, 2003.*
9. *Umarova M., eshboev Ў., Axmadjonov Қ. Buxgalteriya qisobi, T., Meqnat, 1999*
10. *Fulomova F.F. Buxgalteriya qisobi bo`yicha mustaқil o`rganish uchun қo`llanma.T., Iқtisodiyot va quқuқ dunyosi» nashriyot uyi, 2000.*

Ma`ruza 16. KORXONA DAROMADLARI, QARAJATLARI VA OXIRGI MOLIYAVIY NATIJALAR KO`RSATKICHLARINING QISOBI

(2 soat)

Ma`ruza rejasi

1.Korxona daromadlarining qisobi

2.Korxona xarajatlarining qisobi

3.Oxirgi moliyaviy natijalar ko`rsatkichlari va ularning qisobi

4.Qisobot davr foydasini ishlatilishi va korxona sof foydasini taқsimlanishining qisobi

1.Korxona daromadlarining qisobi

Korxonalar moliyaviy-xo`jalik faoliyatining muqim ko`rsatkichi bo`lib daromadlar qisoblanadi. Ushbu ko`rsatkichning moqiyati, tasnifi va tavsifi respublikamizda қabul қilingan қuyidagi me`yoriy qujjatlarda atroflicha ochib berilgan:

- Ўzbekiston Respublikasi Soliқ Kodeksi (16-modda);
- BQMS «Moliyaviy qisobotni tuzish va taқdim etish uchun kontseptual asos»
- 2-son BQMS « Asosiy xo`jalik faoliyatidan olingan daromadlar»
- «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom».

Ushbu me`yoriy xujjatlarga muvofiқ **daromad** deganda, umumiy olganda, qisobot davrida korxona aktivlarini қo`payishi yoki uning majburiyatlarini kamayishi tushuniladi. Korxonalarning barcha daromadlari Ўzbekiston Respublikasining Soliқ Kodeksida 13 ta turga bo`lingan (16-modda), 2-son BQMSda ushbu turdagi daromadlar ikkita katta guruqga , ya`ni asosiy faoliyatdan olingan daromadlar va asosiy bo`lmagan faoliyatdan olingan daromadlarga, ajratilgan (1-chizmaga қarang).

Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar deganda korxona ustavida belgilangan asosiy faoliyatdan olingan daromadlar tushuniladi. «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom» ga muvofiқ korxonalarning asosiy faoliyatdan olingan daromadlari, o`z navbatida, қuyidagi ikki guruqga ajratiladi:



1- chizma. **Korxona daromadlarining tasnifi**

• **Sotishdan olingan daromadlar** – bularga maqsulot, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan tushumlar (aktsiz, ҚҚS va eksport bo`yicha bojxona bojidan tashқari) kiradi.

• **Asosiy faoliyatdan olingan boshқa daromadlar** –bularga korxonaning asosiy vositalari va boshқa aktivlarini sotishdan olingan foyda, o`ndirilgan jarimalar, voz kechilgan kreditorlik қarzlari, bepul kelib tushgan aktivlar, inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar, TMB larni қayta baqolashdan olingan daromadlar va boshқalar kiradi.

*Asosiy bo`lmagan faoliyatdan olingan daromadlar* deganda bevosita asosiy faoliyatga taalluқli bo`lmagan faoliyat turlaridan olingan daromadlar
tushuniladi. Bunday daromadlar Nizomga muvofiқ moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga va favқulotdagi daromadlarga bo`linadi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar deganda қimmatli қoғozlar, valyuta operatsiyalari, kredit va қarzlarni berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga royalti, dividendlar va foizlar, ijobiy kurs farқlari kўrinishidagi daromadlar va boshқalar kiradi.

Favқulotdagi daromadlar deganda yuz berishi doimiy xarakterga ega bo`lmagan, kutilmagan tasodif va qodisalardan olingan daromadlar tushuniladi. Bularga davlat қonunlarini o`zgarishi, tabiiy ofatlar, revolyutsion o`zgarishlar natijasida vujudga kelgan daromadlar kiradi.

Korxona daromadlari bo`yicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalari bo`lib қuyidagilar qisoblanadi:

- Daromadlarni qisoblash tamoyiliga muvofiқ ular yuz bergan vaқtdan boshlab tan olish va baqolash;
- Daromadlarni to`ғri guruqlash va tegishli schyotlarda aks ettirish;
- Daromadlarni soliқlarga munosabatini to`ғri belgilash;
- Daromadlarni moliyaviy qisobotda to`ғri aks ettirish va boshқalar

Sotishdan olingan daromadlarning qisobi. 21-son BQMSga muvofiқ sotishdan olingan daromadlar қuyidagi schyotlarda qisobga olinadi:

- **9010 “Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar”** –bu passiv va vaқtinchalik schyotda korxonalar o`zlari ishlab chiқargan maqsulotlarini sotishdan olgan daromadlarini qisobga olishda foydalanadilar. Schyotning kreditida olingan daromad yil maboynida to`planib boradi, bunda maqsulotni sotish usuliga қarab turli schyotlar debetlanadi. Masalan, maqsulot naқd pulga sotilganda 5010 “Kassa” schyoti, maqsulot naқdsiz sotilganda esa 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”, 4110 “Maxsus ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar”, 4120 “SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar” va boshқa debitorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar debetlanadi. Yil maboynida 9010 “ Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar” schyoti faқat kredit sal’dosiga ega bo`ladi va bu sal’do yil boshidan boshlab olingan daromad summasini ko`rsatadi. Yil yakunida ushbu schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.
- **9020 “Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar”** - bu passiv va vaқtinchalik schyot asosan ulgurji va chakana savdo korxonalarida, shuningdek o`zlari ishlab chiқargan maqsulotlarini firma magazinlari orқali sotadigan ishlab chiқarish korxonalarida ishlatiladi. Schyotning kreditida tovarlarni sotishdan olingan daromad yil maboynida to`planib boradi, bunda tovarlarni sotish usuliga қarab 5010 “Kassa” schyoti, 4010

“Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”, 4110 “Maxsus ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar”, 4120 “SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar” va boshқa debitorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar debetlanadi. Yil maboynida 9020 “ Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar” schyoti faқat kredit sal’dosiga ega bo`ladi va bu sal’do yil boshidan boshlab olingan daromad summasini ko`rsatadi. Yil yakunida ushbu schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9030 “Bajarilgan ishlar va xizmatlardan olingan daromadlar” -** bu passiv va vaқtinchalik schyot asosan қurilish tashkilotlari va xizmat soqasi korxonalarida, shuningdek asosiy faoliyatidan tashқari ish va xizmatlar ko`rsatuvchi boshқa turdagi korxonalarda ishlatiladi. Schyotning kreditida bajarilgan ish va xizmatlarni sotishdan olingan daromad yil maboynida ularga guvoqlik beruvchi qujjatlar asosida to`planib boradi. Ish va xizmatlarni sotish usullariga қarab 5010 “Kassa” schyoti, 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”, 4110 “Maxsus ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar”, 4120 “SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar” va boshқa debitorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar debetlanadi. Yil maboynida 9030 “ Bajarilgan ish va xizmatlarni sotishdan olingan daromadlar” schyoti faқat kredit sal’dosiga ega bo`ladi va bu sal’do yil boshidan boshlab olingan daromad summasini ko`rsatadi. Yil yakunida ushbu schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Sotilgan maqsulotlar, tovarlar , ish va xizmatlar turli sabablarga ko`ra korxonaga қaytarilishi mumkin. Bunday qolda қaytarilgan maqsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarning қiymati maxsus kontrpassiv bo`lgan 9040 “ Sotilgan tovarlarni қaytarilishi” schyotining debetida aks ettiriladi, bunda mos ravishda 5010 “Kassa”,4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”, 4110 “Maxsus ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar”, 4120 “SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar” va boshқa debitorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar kreditlanadi. 9040“ Sotilgan tovarlarni қaytarilishi” schyotining debetida to`plangan summa mos ravishda 9010 “Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar”, 9030 “Bajarilgan ish va xizmatlardan olingan daromadlar” schyotlarining debetiga o`tқaziladi va shu asosda ushbu schyot yopiladi. Қaytarilgan maqsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlar bo`yicha sotish tannarxi va sotishdan olingan ҚҚS summasini aks ettiruvchi schyotlarga qam tuzatishlar қilinadi.

Maqsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishda xaridorlar va buyurtmachilarga tuzilgan shartnoma shartlariga ko`ra turli miқdorda chegirmalar qam berilishi mumkin. Bunday chegirmalar summasi maxsus kontrpassiv bo`lgan 9050 “ Xaridorlar va

buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotining debetida aks ettiriladi, bunda mos ravishda 4010 “Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar”, 4110 “Maxsus ajratilgan bo`linmalardan olinadigan schyotlar”, 4120 “SHo``ba va қaram xo`jalik jamiyatlaridan olinadigan schyotlar” va boshқa debitorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar kreditlanadi.

9050 “Xaridorlar va buyurtmachilarga berilgan chegirmalar” schyotining debetida to`plangan summa mos ravishda 9010 “Tayyor maqsulotlarni sotishdan olingan daromadlar”, 9020 “Tovarlarni sotishdan olingan daromadlar”, 9030 “Bajarilgan ish va xizmatlardan olingan daromadlar” schyotlarining debetiga o`tқaziladi va shu asosda ushbu schyot yopiladi. Maqsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarni sotishda berilgan chegirmalar summasi sotishdan olingan daromadlar summasini kamaytiradi.

Korxonalar daromadlarining analitik qisobi maqsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarning sotish turlari va boshқa boshқaruv uchun zarur segmentlar bo`yicha olib boriladi.

Asosiy faoliyatdan olingan қo`shimcha daromadlarning qisobi. 21-son BQMSga muvofiқ asosiy faoliyatdan olingan қўshimcha daromadlar қuyidagi schyotlarda qisobga olinadi:

• **9310 “Asosiy vositalarning chiқimidan olingan foyda”** –bu passiv va vaқtinchalik schyotda korxonalar o`zlarining asosiy vositalarini sotishdan va boshқa chiқimlaridan olgan foydasini qisobga olishda foydalanadilar. Schyotning kreditida olingan foyda yil maboynida to`planib boradi. Ushbu foyda asosiy vositalarning sotish (berish) қiymatidan ularning қoldiқ қiymatini va sotishdan olingan ҚҚS summasini ayirgandan қolgan summadan iborat bўladi. Masalan, boshlanғich қiymati 500000 sўmlik, jamlangan eskirish қiymati 300000 sўmlik komp’yuter 440000 sўmga sotildi deylik. Sotishdan olingan ҚҚS summasi ushbu qolda 40000 sumni ((440000 – 200000) *20/120), sotishdan olingan foyda summasi esa – 200000 sumni (440000-200000-40000) tashkil қiladi. Ushbu foyda summasi debet 9210 “Asosiy vositalarning chiқimi” schetda va kredit 9310 “ Asosiy vositalarning chiқimidan olingan foyda”schyotida aks ettiriladi.

Yil yakunida ushbu 9310- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9320 “Boshқa aktivlarni chiқimidan olingan foyda”** - bu passiv va vaқtinchalik schyotda korxonalar o`zlarining turli boshқa aktivlarini, masalan materiallarini, xўjalik inventarlarini, nomoddiy aktivlari va boshқa aktivlarini sotishdan va boshқa chiқimlaridan olgan foydasini qisobga olishda foydalanadilar. Schyotning kreditida olingan foyda yil maboynida to`planib boradi. Ushbu foyda boshқa aktivlarning sotish (berish) қiymatidan ularning tannarxini (қoldiқ қiymatini) va sotishdan olingan ҚҚS summasini ayirgandan қolgan summadan iborat bўladi. Masalan, tannarxi 50000 sўmlik

material 72000 sўmga sotildi deylik. Sotishdan olingan ҚҚS summasi ushbu qolda 12000 sumni (72000 *20/120), sotishdan olingan foyda summasi esa – 10000 sumni (72000-50000-12000) tashkil қiladi. Nomoddiy aktivlarni sotishdan (berishdan) olingan foyda xuddi asosiy vositalarni sotishdagidek topiladi. Boshқa aktivlarni chiқimidan olingan foyda summasi debet 9220 “Boshқa aktivlarning chiқimi” schetda va kredit 9320 “Boshқa aktivlarni chiқimidan olingan foyda”schyotida aks ettiriladi. Yil yakunida 9320-schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9330 “ Ўndirilgan jarimalar, penya lar va neustoykalar”** -ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida turli xўjalik shartnomalari shartlarini buzilishi natijasida, shuningdek kўrsatilgan zararlarni қoplanishi evaziga olingan daromad (foyda) summasi aks ettiriladi. Bunda mos ravishda jarimani kelib tushganligi, ushlanganligi yoki qisoblanganligini aks ettiruvchi schyotlar debetlanadi, masalan 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob-kitob schyoti”, 5210 “Valyuta schyoti”, 6710 “Xodimlar bilan ish qaқi bўyicha qisob-kitoblar”, 4860 “Da`volar bўyicha kelib tushadigan schyotlar” va boshқa schyotlar. Yil yakunida 9330- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi .

• **9340 “Ўtgan yillar foydasi” -** bu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida qisobot yilda aniқlangan ўtgan yillarning foydasi aks ettiriladi. Bunday foyda bўlib, masalan, muddatidan oldin qisobdan chiқarib yuborilgan debitorlik қarzlarning tiklangan yoki kelib tushgan summasi, ortiқcha qisoblab yuborilgan xarajatlarni kamaytirilishi va boshқalar qisoblanadi. Bunda mos ravishda ўtgan yillar foydasini tiklanganligini kўrsatuvchi schyotlar debetlanadi, masalan 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob-kitob schyoti”, 5210 “Valyuta schyoti”, 4000 “Olinadigan schyotlar” va boshқa schyotlar. Yil yakunida 9340- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9350 “Қisқa muddatli ijaradan olingan daromadlar”** – ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida қisқa muddatli ijaradan olingan daromad summasi 4820 “Қisқa muddatli ijara bўyicha olinadigan tўlovlar” schyoti bilan korrespondentsiyalashgan qolda aks ettiriladi. Yil yakunida 9350- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9360 “Kreditorlik va deponentlik қarzlarni qisobdan chiқarilishidan olingan daromadlar”** – ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida muddatida (3 yildan oshiқ muddatda) ўndirib olinmagan қarzlarni korxona foydasiga ўtқazishdan olingan daromadlar mos ravishda kreditorlik қarzlarni aks ettiruvchi schyotlar (6010,6110,6710,6720, 6910-6990 va boshқalar) bilan korrespondentsiyalangan qolda aks

ettiriladi. Yil yakunida 9360- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9370 “Xizmat қiluvchi xўjaliklardan olingan daromadlar”** – ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida asosiy faoliyatga xizmat kўrsatuvchi xўjaliklardan (soғliқni saқlash bўlinmasi, sartoroshxona, kutubxona, bolalar boғchasi va boshқa muassasalari, sanatoriylar, oshxona, meqmonxona, sport komplekslari va boshқalar) olingan daromadlar aks ettiriladi. Bunda olingan yoki qisoblangan daromadlarni aks ettiruvchi schyotlar, masalan, 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob-kitob schyoti”, 4890 “Boshқa debitorlarning қarzlari” va boshқa schyotlar debetlanadi. Yil yakunida 9370- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi

• **9380 “ Қaytarilmaydigan moliyaviy yordam” -** ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida turli yuridik va jismoniy shaxslardan қaytarib bermaslik sharti bilan olingan moliyaviy yordam summalari aks ettiriladi. Bunda olingan yordamning turini aks ettiruvchi schyotlar, masalan, 5010 “Kassa”, 5110 “Qisob-kitob schyoti”, 0100 “Asosiy vositalar schyoti”, 1000 “Materiallar schyoti” va boshқa schyotlar debetlanadi. Yil yakunida 9380- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi

• **9390 “Boshқa operatsion daromadlar”-** ushbu passiv va vaқtinchalik schyotning kreditida yuқorida keltirilgan schyotlarga olib borilmagan boshқa operatsion daromadlar, masalan inventarizatsiyada aniқlangan ortiқchalar, turli қoplama summalar va boshқalar, aks ettiriladi. Bunda mos ravishda TMZ va pul mablaғlarini aks ettiruvchi schyotlar (0100,1000,2800,2900,5000 va boshқalar) debetlanadi. Yil yakunida 9390- schyotning kreditida to`plangan summa uning debetiga va 9900 “ Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Korxonalarning asosiy faoliyatdan olingan қўshimcha daromadlarining analitik qisobi ularning turlari va boshқa boshқaruv uchun zarur segmentlari bo`yicha olib boriladi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning qisobi.21-son BQMSga muvofiқ moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar қuyidagi schyotlarda qisobga olinadi:

• **9510** “Royalti kўrinishidagi daromadlar”

• **9520** “Dividendlar kўrinishidagi daromadlar”

• **9530** “Foizlar kўrinishidagi daromadlar”

• **9540** “Valyuta kurslari farқlaridan olingan daromadlar”

• **9550** “Uzoқ muddatli ijaradan olingan daromadlar”

• **9560** “Қimmatli қoғozlarni қayta baqolashdan olingan daromadlar”

• **9590** “ Moliyaviy faoliyatdan olingan boshқa daromadlar”

Ushbu passiv va vaқtinchalik schyotlarning kreditida nomlari yuқorida zikr etilgan daromadlarning turlari qisoblash tamoyiliga muvofiқ aks ettiriladi.

Royalti kўrinishidagi daromadlar deganda korxonalarning nomoddiy aktivlarini, masalan komp'yuterlar uchun dasturlar ta`minotini, litsentsiyalar va boshқalarni ijaraga berishdan va xamkorlikda foydalanishdan olingan daromadlar tushuniladi. Ushbu daromadlarni qisoblanishi 4850 "Olinadigan royalti" schyotining debetida va 9510 "Royalti kўrinishidagi daromadlar" schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil oxirida 9510-schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 "Oxirgi moliyaviy natija" schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Dividendlar – bu aktsiyalarga kiritilgan moliyaviy investitsiyalar uchun qisoblangan daromad. Ushbu daromadni qisoblashga asos bўlib aktsionerlik jamiyatining dividendning qisoblanganligi tўғrisidagi yozma xabarnomasi qisoblanadi. Ushbu xabarnomada jami qisoblangan dividend summasi, undan ushlangan dividend soliғi summasi va tўlanadigan dividend summasi aks ettiriladi. Agar xabarnomada dividend soliғini ushlanmaganligi uқtirilgan bўlsa, u qolda ushbu soliқni dividend olgan korxona tўlashi lozim. Qisoblangan didivend kўrinishidagi daromadlar 4840 " Olinadigan dividendlar" schyotining debetida va 9520 "Dividend kўrinishidagi daromadlar" schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil oxirida 9520- schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 "Oxirgi moliyaviy natija" schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Foizlar kўrinishidagi daromadlar deganda boshқa yuridik shaxslarga berilgan қarzlar va kreditlar uchun qisoblangan foizlar tushuniladi. Ushbu foizlarning miқdori tuzilgan shartnomalar asosida qisoblanadi. Foiz kўrinishidagi qisoblangan daromadlar 4830 " Olinadigan foizlar" schyotining debetida va 9530 "Foizlar kўrinishidagi daromadlar" schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil oxirida 9530- schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 "Oxirgi moliyaviy natija" schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Valyuta kurslari farқlaridan olingan daromadlar deganda korxonaning valyuta schyotida saқlanayotgan chet valyutasi va chet el valyutasidagi debitorlik қarzlar bўyicha qisoblangan ijobiy kurs farқlari tushuniladi. Ushbu daromad qar oyning oxirida 5210 "Mamlakat ichidagi valyuta schyotlari", 5220 "CHet eldagi valyuta schyotlari", 4000 "Olinadigan schyotlar", 4300 "Ta`minotchi va pudratchilarga berilgan bўnaklar qisobi schyotlari" va boshқa chet el valyutasida qisobi yuritilgan debitorlik қarzlar schyotlari bўyicha Ўzbekiston Respublikasi Markaziy Banki e`lon қilgan kurslar asosida qisoblanadi. Qisoblangan ijobiy kurs farқlari yuқorida keltirilgan schyotlarning debetida va 9540 "Valyuta kurslari farқlaridan olingan daromadlar" schyotining kreditida aks

ettiriladi. Yil oxirida 9540- schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Uzoқ muddatli ijaradan olingan daromadlar deganda mulkni bir yildan kўp muddatga ijaraga berishdan olingan daromadlar tushuniladi. Ushbu daromadning summasi tuzilgan lizing (ijara) shartnomasi asosida qisoblanadi. Qisoblangan daromad summasi 4830 “Olinadigan foizlar”, 6230 “Boshқa muddati uzaytirilgan daromadlar” schyotlarining debetida va 9550 “Uzoқ muddatli ijaradan olingan daromadlar” schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil oxirida 9550- schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Қimmatli қoғozlarni қayta baqolashdan olingan daromadlar deganda uzoқ va қisқa muddatli investitsiyalar қiymatini oshirish natijasida vujudga kelgan daromadlar tushuniladi. Bunday daromadlar қayta baqolash dalolatnomalari asosida qisoblanadi. Qisoblangan daromad summasi 0600 “Uzoқ muddatli investitsiyalar qisobi schyotlari”, 5800 “ Қisқa muddatli investitsiyalar qisobi schyotlari”ining debetida va 9560 “Қimmatli қoғozlarni қayta baqolashdan olingan daromadlar” schyotining kreditida aks ettiriladi. Yil oxirida 9560- schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

Korxonalarning moliyaviy faoliyatidan olingan daromadlarning analitik qisobi ularning turlari va boshқa boshқaruv uchun zarur segmentlari bo`yicha olib boriladi.

Favқulotdagi daromadlarning qisobi. 21-son BQMSga muvofiқ favқulotdagi daromadlarning qisobi 9710 “Favқulotdagi foyda” schyotining kreditida qisobga olinadi. Bunda favқulotda olingan yoki qisoblangan foydaning turini kўrsatuvchi schyotlar (0100, 0400, 0700, 1000, 2900 va boshқa schyotlar) debetlanadi. Yil oxirida 9710-schyotning kreditida tўplangan summa uning debetiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining kreditiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

2. Korxona xarajatlarining qisobi

Korxonalar moliyaviy-xo`jalik faoliyatining muqim ko`rsatkichi bo`lib xarajatlar qisoblanadi. Ushbu ko`rsatkichning moqiyati, tasnifi va tavsifi, tan olinishi, schyotlar tizimi va ular bo`yicha buxgalteriya yozuvlari ushbu bobning oxirida keltirilgan me`yoriy qujjatlarda, shu jumladan, «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom» da, atroflicha ochib berilgan.

Ushbu me`yoriy xujjatlarga muvofiқ **xarajat** deganda, umumiy olganda, qisobot davrida korxona aktivlarini kamayishi yoki uning majburiyatlarini kўpayishi tushuniladi.

Korxonalarning barcha xarajatlari respublikamizda қabul қilingan BQMS lar va «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom» ga va unga kiritilgan o`zgartirishlar va қo`shimchalarga muvofiқ ikkita guruqga va oltita қuyi guruqga ajratilgan (2-chizmaga қarang).

Asosiy faoliyatga doir xarajatlar deganda korxona ustavida belgilangan asosiy faoliyat bilan boғliқ xarajatlar tushuniladi. «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom» va 21-son BQMS ga muvofiқ korxonalarning asosiy faoliyati bilan boғliқ xarajatlarni, o`z navbatida, қuyidagi tўrtta қuyi guruqga ajratiladi:

• **Sotish tannarxiga kiritilgan xarajatlar** – bularga sotilgan maqsulotlar, tovarlar, ishlar va xizmatlarning tannarxiga kiritilgan xarajatlar kiradi.

• **Davr xarajatlari** –bularga maqsulotlarni (tovarlarni, ish va xizmatlarni) sotishga, korxonani ma`muriy-boshқaruviga va boshқa operatsion faoliyatiga doir xarajatlar kiradi. Ushbu xarajatlar ma`lum qisobot davrida yuz beradi, shuning uchun ular qisobot davri xarajatlari deb qam ataladi.

• **Kelgusi davr xarajatlari** - bu korxonaning kelgusi asosiy faoliyatiga doir, lekinda qisobot davrida amalga oshirilgan xarajatlari. Bunday xarajatlarga oldindan tўlangan ijara qaқlari, oldindan tўlangan xizmat qaқlari va boshқa oldindan bўnak sifatidagi tўlovlar kiradi.

• **Muddati uzaytirilgan xarajatlar** – bularga korxonaning kelgusi asosiy faoliyatiga doir, lekinda muddati bir yil va undan kўp muddatga uzaytirilgan xarajatlari kiradi.

**Asosiy bo`lmagan faoliyatga doir xarajatlar** deganda bevosita asosiy faoliyatga taalluқli bo`lmagan faoliyat turlari bilan boғliқ xarajatlar tushuniladi. Bunday xarajatlar Nizomga muvofiқ moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar va favқulotdagi zararlarga bo`linadi.

Moliyaviy faoliyatga doir xarajatlar deganda қimmatli қoғozlarni chiқarish va joylashtirish, valyuta operatsiyalari, kredit va қarzlarni olish, uzoқ muddatli ijaraga doir va boshқa moliyaviy faoliyatga taalluқli xarajatlar tushuniladi. Bularga foizlar, salbiy kurs farқlari kўrinishidagi xarajatlar va boshқalar kiradi.



2-chizma. **Korxona xarajatlarining tasnifi**

Favқulotdagi xarajatlar deganda yuz berishi doimiy xarakterga ega bo`lmagan, kutilmagan tasodif va qodisalardan kўrilgan zararlar tushuniladi. Bularga davlat қonunlarini o`zgarishi, tabiiy ofatlar, revolyutsion o`zgarishlar natijasida vujudga kelgan zararlar kiradi.

Korxona xarajatlari bўyicha buxgalteriya qisobining asosiy vazifalariga қuyidagilar kiradi:

- xarajatlarni ularning moqiyatini ochib beruvchi mezonlariga mos ravishda qisobga olish;
- korxona xarajatlarini to`ғri turkumlash va guruqlarga ajratish;
- korxona xarajatlarini to`ғri, o`z vaқtida va tegishli boshlanғich qujjatlar bilan rasmiylashtirish ;
- korxona xarajatlari bo`yicha qisobotlar ma`lumotlari va qisob ma`lumotlarini tўliқ uyғunligini ta`minlash;
- kelgusi davr va muddati uzaytirilgan xarajatlarni to`ғri va o`z vaқtida sotish tannarxi, davr xarajatlari va moliviy faoliyatga doir xarajatlarga kiritish;
- tugallanmagan ishlab chiқarishga to`ғri keladigan xarajatlarni to`ғri va o`z vaқtida qisobga olish , ularni belgilangan muddatlarda қayta ro`yxatdan o`tkazish (inventarizatsiya қilish) va sotish tannarxiga tўғri kiritilishini ta`minlash;
- sotish tannarxini, davr xarajatlarini oshib ketishiga sabab bo`luvchi noratsional chiқimlarni vujudga kelish sabablari va aybdorlarini topish, bunday chiқimlarga yo`l қo`ymaslik uchun ma`sul shaxslar faoliyatini doimiy nazorat қilish;
- mavjud zaxiralar va vositalaridan unumli foydalanish ustidan nazorat o`rnatish;
- xarajatlarni soliқ solish bazasi ob`ekti sifatida to`ғri shakllantirish;
- xarajatlarni qisoblash tamoyiliga muvofiқ ular yuz bergan vaқtdan boshlab tan olish va tegishli schyotlarda aks ettirish;
- xarajatlarni moliyaviy qisobotda to`ғri aks ettirish va boshқalar

Sotish tannarxining qisobi. 21-son BQMS ga muvofiқ sotish tannarxining qisobi sotish turlariga қarab қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

9110 “Sotilgan tayyor maqsulotlarning tannarxi”- ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyotning debetida yil maboynida sotilgan tayyor maqsulotlarning tannarxi aks ettiriladi. Bunda 2800 “Tayyor maqsulotlar qisobi schyotlari” kreditlanadi. Yil oxirida 9110-schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

9120 “Sotilgan tovarlarning tannarxi”- ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyot asosan TMB larning uzliksiz qisob usulida ishlaydigan korxonalarda, shu jumladan ulgurji savdo korxonalarida, keng қўllaniladi, uning debetida yil maboynida sotilgan tovarlarning tannarxi aks ettiriladi. Bunda 2900 “Tovarlar qisobi schyotlari” schyoti kreditlanadi. Yil oxirida 9120- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

9130 “Bajarilgan ishlar va xizmatlarning tannarxi” - ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyot asosan қurilish tashkilotlarida, xizmat kўrsatuvchi korxonalarda, shuningdek turli faoliyat turlari bilan shuғullanuvchi korxonalarda қўllaniladi, uning debetida yil maboynida buyurmachilarga topshirilgan bajarilgan ish va xizmatlarning tannarxi aks ettiriladi. Bunda 2010 “Asosiy ishlab chiқarish”, 2310 “YOrdamchi ishlab chiқarish”, 2710 “ Xizmat kўrsatuvchi xўjaliklar” schyotlari kreditlanadi. Yil oxirida 9130- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

9140 “Davriy qisob usulida TMB ni sotib olish” - ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyot asosan TMB larning davriy qisob usulida ishlaydigan korxonalarda, shu jumladan chakana savdo va ommaviy ovқatlanish korxonalarida, қўllaniladi, uning debetida yil maboynida ta`minotchilardan olingan tovarlarning tannarxi aks ettiriladi. Bunda 6010 “Ta`minotchilar va pudratchilarga tўlanadigan schyotlar” schyoti kreditlanadi. Yil oxirida 9140- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

- **9150 “Davriy qisob usulida TMB bўyicha tuzatishlar”-** ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyot asosan TMB larning davriy qisob usulida ishlaydigan korxonalarda, shu jumladan chakana savdo va ommaviy ovқatlanish korxonalarida, қўllaniladi. Davriy qisob usulida ishlayotgan korxonalarda sotilgan tovarlar tannarxini topish uchun davr oxirida inventarizatsiya ўtқaziladi. Inventarizatsiya natijasida aniқlangan TMB larning qaқiқiy qolati ularning davr boshidagi qolati bilan taққoslanadi, natijada TMB lar qolatidagi ўzgarish summasi (kamayish yoki kўpayish) aniқlanadi. Aniқlangan farқ summasi schyot bўyicha tuzatish summasini bildiradi. Agar tuzatish kamayish tomoniga қilinishi kerak bўlsa, ўrtadagi farқ 9150 “Davriy qisob usulida TMB bўyicha tuzatishlar” schyotining debetiga, agar tuzatish kўpayish tomoniga қilinishi kerak bўlsa, u qolda ўrtadagi farқ ushbu schyotning kreditiga yoziladi. Bunda TMB lar schyotlari (1000,1100,2000,2800,2900) mos ravishda kreditlanadi (kamayganda) va debetlanadi (kўpayganda). Yil oxirida 9150- schyotda tўplangan summa mos ravishda 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga (kўpayganda) yoki kreditiga (kamayganda) yopiladi.

Davr xarajatlarining qisobi. 21-son BQMS ga muvofiқ davr xarajatlari-ning qisobi қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

- **9410 “Sotish xarajatlari”-** ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyotning debetida yil maboynida sotishga doir xarajatlar (reklama xarajatlari, sotish bilan boғliқ xodimlarning ish qaқi, ijtimoiy suғurtaga ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, transortirovka va boshқa shu kabi sotish bilan boғliқ xarajatlar) aks ettiriladi. Ushbu schyotda aks ettiriladigan xarajatlarning aniқ turlari va tarkibi «Maqsulot (ish,

xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom»ning «Sotish xarajatlari» nomli bўlimida tўliғicha keltirilgan. Xarajatlarning aniқ turlari ushbu schyotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schyotlarning kreditida (5110,5010,6710,6520,6990 va boshқa schyotlar) aks ettiriladi. Yil oxirida 9410- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9420 “Ma`muriy-boshқaruv xarajatlari”-** ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyotning debetida yil maboynida boshқaruvga doir xarajatlar (ish qaқi, ijtimoiy suғurtaga ajratmalar, amortizatsiya xarajatlari, safar xarajatlari, telefon aloқasi va boshқa shu kabi boshқaruv bilan boғliқ xarajatlar) aks ettiriladi. Ushbu schyotda aks ettiriladigan xarajatlarning aniқ turlari va tarkibi «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom»ning «Ma`muriy –boshқaruv xarajatlari» nomli bўlimida tўliғicha keltirilgan. Xarajatlarning aniқ turlari ushbu schyotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schyotlarning kreditida (0200,0500,1000,5110,5010,6710,6520,6990 va boshқa schyotlar) aks ettiriladi. Yil oxirida 9420- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9430 “Boshқa operatsion xarajatlar” -** ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyotning debetida yil maboynida sotish va boshқaruvdan tashқari umum faoliyatga doir davr xarajatlari (moddiy yordam, kompensatsiyalar, mol-mulk, ekolgiya, er, suv va boshқa davr xarajatlariga olib boriladigan soliқlar, pesiya fondiga va yўl fondiga majburiy ajratmalar , mulkni sotishdan va berishdan kўrilgan zararlar va boshқa shu kabi operatsion xarajatlar) aks ettiriladi. Ushbu schyotda aks ettiriladigan xarajatlarning aniқ turlari va tarkibi «Maqsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom»ning «Boshқa operatsion xarajatlar» nomli bўlimida tўliғicha keltirilgan. Xarajatlarning aniқ turlari ushbu schyotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schyotlarning kreditida (1000,5110,5010, 6400,6710,6520,6990,9210,9220 va boshқa schyotlar) aks ettiriladi. Yil oxirida 9430-schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi.

• **9440 “Kelgusida soliқ bazasidan chegiriladigan qisobot davr xarajatlari”-** ushbu aktiv, vaқtinchalik (tranzit) schyotning debetida yil maboynida korxonani kelgusi faoliyatini rivojlantirishga sarflangan davr xarajatlari (yangi ishlab chiқarishni va yangi texnologiyalarni ўzlashtirishga, boshқaruv tizimini yaxshilashga sarflangan va boshқa shu kabi operatsion xarajatlar) aks ettiriladi. Ushbu schyotda aks ettiriladigan xarajatlarning aniқ turlari va tarkibi «Maqsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiқarish va sotish xarajatlari qamda moliyaviy natijalarni shakllantirish to`ғrisida Nizom»ning «Kelgusida soliқ

bazasidan chegiriladigan qisobot davr xarajatlari» nomli 2- ilovasida tўliғicha keltirilgan. Ushbu turdagi davr xarajatlari solиқ қonunchiligiga kўra kelgusi 10 yil ichida bir maromda solиқ bazasidan maxsus qisob-kitob asosida chiқarib boriladi. Xarajatlarning aniқ turlari ushbu schyotning debetida va bu xarajatlarni ifodalovchi schyotlarning kreditida (1000, 5110, 5010, 6010, 6710, 6520, 6990 va boshқa schyotlar) aks ettiriladi. Yil oxirida 9440- schyotning debetida tўplangan summa uning kreditiga va 9900 “Oxirgi moliyaviy natija” schetining debetiga yoziladi va shu asosda u yopiladi. Kelgusida solиқ bazasidan chegiriladigan qisobot davr xarajatlarini ўzgarishi tўғrisidagi ma`lumotlar maxsus balansdan tashқari 012 “ Kelgusida solиқ bazasidan chegiriladigan qisobot davr xarajatlari” schyotida belgilangan muddat ichida aks ettirilib boriladi.

Moliyaviy faoliyat bo`yicha xarajatlarning qisobi. 21-son BQMS ga muvofiқ korxonalarning moliyaviy faoliyatga doir xarajatlarining qisobi қuyidagi schyotlarda olib boriladi:

